Jinoiy daromadlarni legallashtirish bo'yicha qo'shma razvedka guruhi – bu pul yuvish va kengroq iqtisodiy tahdidlarga oid ma'lumotlarni almashish va tahlil qilish uchun huquqni muhofaza qilish organlari va moliya sektori o'rtasidagi hamkorlikdir. JMLIT davlat-xususiy axborot almashishning innovatsion modeli bo'lib, 2015-yilda tashkil etilgan va xalqaro miqyosda ilg'or tajriba namunasi hisoblanadi.

**Aholining xabardorligini oshirish:** Rossiya Federatsiyasi hukumati fuqarolarni "Darknet", shuningdek internetdagi xavf-xatarlari haqida xabardor qilish va har qanday shubhali faoliyat haqida xabar berishga undash uchun "Xavfsiz Internet Ligasi" veb-sayti ishlab chiqilgan. Agar fuqarolar internatda noqonuniy faoliyatni aniqlasalar, ular "<http://www.ligainternet.ru/hotline/>" havolasi orqali xabar berishlari mumkin. Birgina AQShning o'zida 60 milliondan ortiq odam elektron identifikator o'g'irlanishidan zarar ko'rgan.<sup>1</sup>

Xavfsiz Internet ligasi – bu "World Wide Web"da xavfli kontent tarqalishiga qarshi kurashish uchun yaratilgan tashkilot. Liga a'zolari tijorat, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari va internetdagi xavfli kontentga qarshi kurashga real hissa qo'shish imkoniyati va istagiga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi mumkin.<sup>2</sup>

**Ma'lumotlar almashishni yaxshilash:** Yevropa Ittifoqi butun qit'adagi huquqni muhofaza qilish idoralari o'rtasida ma'lumotlar almashish va hamkorlikni osonlashtirish uchun Yevropa Kiberjinoyat markazini (EC3) tashkil etdi. EC3 "Darknet" orqali sodir etilgan kiberjinoyat va iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilish va

<sup>1</sup> United States; Congress; House; Committee on Ways and Means (2018). Protecting Children from Identity Theft Act: report (to accompany H.R. 5192) (including cost estimate of the Congressional Budget Office).

<sup>2</sup> Лига Безопасного интернета. URL: <https://www.tadviser.ru/index.php> Компания:Лига\_безопасного\_интернета

ta'qib qilishda a'zo davlatlarga operativ yordam va ekspertiza o'tkazishda yordam beradi.

Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan “Yevropa Ittifoqi Huquqni muhofaza qilish organlarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilish protokoli” (*EU Law Enforcement Emergency Response Protocol*) qabul qilindi. Protokol Yevropolning Yevropa kiberjinoyatchilik markaziga (EC3) markaziy rol o'ynaydi va Yevropa Ittifoqining keng ko'lami transchegaraviy kiberxavfsizligini muvofiqlashtirish rejasining bir qismidir.<sup>1</sup>

Mazkur protokol 7 bosqichni o'z ichiga oladi:

- Muhim ahamiyatga ega bo'lgan kibertahdidni erta fosh etish va aniqlash;
- Xavfni tasniflash;
- Favqulodda vaziyatlarda harakatni muvofiqlashtirish;
- Vaqtli ogohlantirish xabari;
- Huquqni muhhofaza qilish organlarining tezkor tadbir rejasи;
- Tergov va bir necha bosqichli tahlil;
- Favqulodda vaziyatlarga javob berish protokoli yakuni.

Yevropolning tezkor tadbirdilar bo'yicha ijrochi direktori o'rinosari Uil van Gemert: “Yevropa Ittifoqi va uning fuqarolarini keng ko'lami kiberhujumlardan himoya qilish uchun kibertayyorligimizni oshirish juda muhimdir”, deb aytib o'tgan.<sup>2</sup> Bundan ko'rilib turibdiki, kiberxavfsizlik masalasi global ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, dasturiy ta'minotlarni zamonaviylashtirmasdan turib xavfsiz kibermakon yaratib bo'lmaydi.

**Dasturiy ta'minot:** FQB “Tor”ning ma'lum foydalanuvchilarini aniqlashga urinib, 2002-yildan beri FQB “Tor” kabi proksi-serverlar yoki anonimlik xizmatlaridan foydalangan holda o'z manzilini yashirayotgan gumonlanuvchilarni aniqlash uchun “kompyuter va internet protokoli manzilini tekshirish” (CIPAV) dasturidan

<sup>1</sup> Commission Recommendation (EU) 2017/1584 of 13 September 2017 on coordinated response to large-scale cybersecurity incidents and crises C/2017/6100

<sup>2</sup> New EU Protocol Preps for X border Cyber-attacks. URL: <https://www.cybercureme.com/new-eu-protocol-preps-for-x-border-cyber-attacks/>

foydalangan.<sup>1</sup> Ushbu dasturiy ta'minot orqali qorong'u tarmoqda noqonuniy faoliyat bilan shug'ullangan shaxslarni deanonimlashtirish amalga oshiriladi.

Darknetdagi jinoiy faoliyatga qarshi kurashish maqsadida Adliya tizimi nomidan RAND va Politsiya Ijroiya Tadqiqot Forumi tomonidan tashkil etilgan ekspertlar seminarida quyidagilarga qaratilgan yuqori darajadagi tavsiyalar taqdim etilgan:

- Trening – ofitserlar va tergovchilarni darknet tarmog'ining tegishli dalillarini aniqlashga o'rgatish;
- Axborot almashish – agentliklar o'rtasida ham ichki, ham xalqaro miqyosda axborot almashishni yaxshilash;
- Hamkorlik uchun yangi tuzilmalar – hamkorlik uchun tashkilotlararo tuzilmalarni qurishning afzalliklarini o'rganish;
- Yangi sud standartlari – kompyuterlarda darknet veb-dalillarni to'plash va sudga taqdim etish uchun yangi standartlarni ishlab chiqish;
- Jinoyatlarmi aloqadorlik bo'yicha o'rganish – huquqni muhofaza qilish organlariga darknetda an'anaviy jinoyatlar va kamroq sodir etiladigan jinoyatlarni o'rganish va jinoyani ochishda yordam berish uchun o'zaro bog'liqligini o'rganish.<sup>2</sup>

**RAND loyihasi** – *Ikkinci Jahon urushidan keyin 1948-yil 14-mayda tashkil etilgan tashkilot – Kalifornyaning Santa Monika shahridagi Duglas aviatsiya kompaniyasidan ajralib chiqdi va mustaqil, jamoat farovonligi va xavfsizligi maqsadidagi notijorat tashkilotga aylangan. RAND butun dunyo bo'ylab jamiyatlarni xavfsizroq, sog'lomroq va farovonroq qilishga yordam berish uchun davlat siyosati muammolariga yechimlar ishlab chiqadigan tadqiqot tashkilotidir.*<sup>3</sup>

Aleksandr va Safranovlar o'zlarining tadqiqit ishlarida darknet bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olish va u bilan bog'liq muammoni hal qilish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash kerakligini ta'kidlab o'tishgan:

<sup>1</sup> Kevin Poulsen, "FBI Admits It Controlled Tor Servers Behind Mass Malware Attack," Wired.com, September 13, 2013.

<sup>2</sup> National Institute of Justice. Taking on the Dark Web: Law Enforcement Experts ID Investigative Needs. URL: <https://nij.ojp.gov/topics/articles/taking-dark-web-law-enforcement-experts-id-investigative-needs>

<sup>3</sup> About the RAND Corporation. URL: <https://www.rand.org/about.html>

1. Darknet tarmog‘ida jinoyatchilar tomonidan qo‘llaniladigan vositalar va resurslarni chuqurroq o‘rganish. Shuni ta’kidlash kerakki, “TOR” brauzeri hozirda yangilik emas, ammo boshqa yopiq veb-brauzerlarda qo‘srimcha bilimlarni kengaytirish;
2. Ushbu sohadagi jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasi va taktikasini takomillashtirish. Shuningdek, soyali internetdan olingan ma’lumotlarning huquqiy holatini aniqlashtirish;
3. jinoyatlarni ochish uchun tezkor xodimlarni ommaviy tarmoqlarga yo‘naltirish kerak, chunki ko‘p hollarda jinoyatchilar yopiq tarmoqdan faqat jinoyat sodir etish platformasi sifatida foydalanadilar va mijozlar bazasi asosan ochiq tarmoqda to‘planadi.<sup>1</sup>

Sudakova T. va Nomokonov V. lar ham o‘z tadqiqot ishlarida mazkur turdagи jinoyatlarga qarshi kurashishda zaruriy tavsiyalarni berib o‘tishgan. Ular quyidagilar:

- Darknet tarmog‘ining jinoiy tarkibiy qismlarining tizimli tavsiflash;
- Darknetdagi jinoiy faoliyatlar to‘g‘risida aholining turli yosh guruhlari xabardorligini o‘rganish, undan foydalanishning afzal shakllari va maqsadlarini aniqlash, so‘rovnama qatnashchilarining ushbu hodisaga shaxsiy munosabatini aniqlash;
- Darknetda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotining qiyosiy huquqiy tahlili (AQSh, Yevropa Ittifoqining alohida davlatlari, Xitoy tajribasi);
- Darknetda va undan foydalanish orqali sodir etilgan jinoiy harakatlarni tergov qilish usullarini ishlab chiqish;
- Raqamli kriminologiyaning ajralmas qismi sifatida Darknetda mavjud bo‘lgan anonim jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha kompleks dastur asoslarini ishlab chiqish.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Александров А. Г., Сафонов А. А., Криминалистика; судебно-экспертная деятельность; оперативно-розыскная деятельность. Использование сети Даркнет при подготовке и совершении преступлений. – 2021.

<sup>2</sup> Sudakova T. M., Nomokonov V. A. Understanding the future of criminology: an overview of current trends. Vserossiiskii kriminologicheskii zhurnal / Russian Journal of Criminology, 2018, vol. 12, no. 4, pp. 531–540. DOI: 10.17150/2500-4255.2018.12(4).531-540.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, darknetdagi kiberjinoyatlarning oldini olish uchun xavfsizlik organlari internet tarmog‘ida o‘tkaziladigan harakatlarni kuzatishga harakat qilmoqda, ammo darknetdagi anonimlik tufayli faoliyatni kuzatish xavfsizlik organlari uchun muammo keltirib chiqarmoqda. Muammolarni hal qilish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish mumkin:

- Mijoz ma’lumotlarini monitoring qilish;
- Ijtimoiy sayt monitoringi;
- Yashirin xizmat monitoringi;
- Semantik tahlil.

**Mijoz ma’lumotlarini monitoring qilish:** huquqni muhofaza qilish organlari nostandard domen bilan o‘zaro aloqani aniqlash uchun mijozlar veb-ma’lumotlarini kuzatishi va tahlil qilishi mumkin. Shunday qilib, ushbu monitoring darknetdagi havolalarni aniqlamasligi mumkin, ammo bu ularning faoliyati haqida ma’lumot beradi. Monitoring davomida foydalanuvchi maxfiyligi buzilmaydi, chunki huquqni muhofaza qilish organlar veb-saytga kiradigan shaxsni emas, balki veb-so‘rovning manzilini tekshiradi.

**Yashirin monitoring:** ko‘pgina darknet veb-xizmatlar tez-tez yopiladi va ma’lum vaqtidan keyin yangi domen ostida qayta ishga tushiriladi. Yashirin tekshiruv faoliyati yangi saytlar ishga tushirilishi bilanoq aniqlash va tahlil qilish orqali sayt maqsadini aniqlashdan iborat.

**Semantik tahlil:** darknetdagi maxfiy xizmatlar ma’lumotlarni olgandan so‘ng, maxfiy xizmat haqida muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan semantik ma’lumotlar bazasi yaratilishi mumkin. Ushbu ma’lumotlar bazasi bilan kelajakda saytdagi noqonuniy harakatlarni oldini olish mumkin.

Darknet tarmog‘idagi iqtisodiy jinoyatlarni qarshi kurashish samaradorligini oshirishda jinoyatni isbotlash protsedurasi, ya’ni internet provayderlaridan dalillar olish va sudga dalillarni taqdim etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darknet tarmog‘ida jinoyat sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortishda muhim jihatlardan biri ularning aybini isbotlab beruvchi dalillar hisoblanadi. Ushbu dalillarni internet

provayderlaridan olish va sudga taqdim etish muhim protsessual harakat hisoblanadi. Ushbu jarayonni tezlashtirish va osonlashtirish uchun Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar elektron dalillar bo'yicha kelishuvni tasdiqladi. Unga ko'ra, a'zo davlatdagi xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga elektron dalillarni olish uchun sud qarorlarini yuborish imkonini beradi.

Shvetsiya Adliya vaziri Gunnar Strommer: "ushbu kelishuv bilan biz adliya organlarimizning asosiy so'roviga javob beramiz. Borgan sari ko'proq jinoyatlar onlayn tarzda rejalashtirilgan yoki sodir etilmoqda va bizning rasmiylar oflaysn rejimda sodir etilgan jinoyatlar uchun bo'lgani kabi ularni jinoiy javobgarlikka tortish vositalariga muhtoj. Dalillarni taqdim etish bo'yicha yangi qoidalalar orqali sudyalar va prokurorlarga, ular qayerda saqlanishidan qat'i nazar, ular yo'qolishidan oldin kerakli dalillarni tezda olish imkonini beradi", deb ta'kidlagan.<sup>1</sup>

Bugungi kunda jinoyatchilar darknet tarmog'idagi jinoyatni rejalashtirish va sodir etish uchun texnologiyadan foydalanmoqda. Natijada, huquqni muhofa qilish organlari ularni kuzatib borish va hukm qilish uchun elektron dalillarga tobora ko'proq tayanishi kerak. Biroq, elektron dalillarga kirish, ayniqsa, ma'lumotlar chet elda saqlangan bo'lsa, uzoq va murakkab jarayon bo'lishi mumkin. Shu sababli, Yevropa Kengashining chaqiriqlaridan so'ng, Komissiya 2018-yil aprel oyida elektron dalillardan foydalanishni yaxshilash uchun yangi qoidalarni taklif qildi.

***Elektron dalillar** – jinoiy huquqbazarliklarni tergov qilish va ta'qib qilish uchun foydalaniladigan raqamli ma'lumotlarni anglatadi. U o'z ichiga elektron pochta xabarlari, matnli xabarlar yoki xabar almashish ilovalaridagi kontent, audiovizual kontent foydalanuvchining onlayn hisobi haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.<sup>2</sup>*

Yevropolning Yevropa kiberjinoyatchilik markazi (EC3) har yili Yevropa Ittifoqidagi hukumatlar, biznes va fuqarolarga ta'sir ko'rsatadigan

<sup>1</sup> Electronic evidence: Council confirms agreement with the European Parliament on new rules to improve cross-border to e-evidence. URL: <https://www.consilium.europa.eu/en/press/press-releases/2023/01/25/electronic-evidence-council-confirms-agreement-with-the-european-parliament-on-new-rules-to-improve-cross-border-access-to-e-evidence/>

<sup>2</sup> Better access e-evidence to fight crime. URL: <https://www.consilium.europa.eu/en/policies/e-evidence/>

kiberjinoyatchilikdagi asosiy topilmalar va paydo bo‘layotgan tahdidlar va o‘zgarishlar to‘g‘risidagi asosiy strategik hisobotni (Internet Organized Crime Threat Assessment - IOCTA) nashr etadi.

*Internetda uyushgan jinoyatchilik tahdidini baholash (IOCTA) – huquqtartibot idoralari, siyosatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kiberjinoyatlarga samarali va kelishilgan tarzda javob berish uchun asosiy tavsiyalar ishlab chiqadi.<sup>1</sup>*

Eng so‘nggi Internetda uyushgan jinoyatchilik tahdidini baholash (*Internet Organized Crime Threat Assessment, IOCTA*) shuningdek, qo‘srimcha jinoyat sohasini, onlayn jinoiy bozorlarni, ham ochiq internet manbasida, ham Darknetda ko‘rib chiqadi. Shuningdek, IOCTAning yana bir tipik yo‘nalishi – bu bir nechta jinoyat sohasini qamrab oluvchi, lekin o‘z-o‘zidan jinoiyatni yashiradigan yoki uning sodir etilishiga omil boladigan qo‘zg‘atuvchilarni qamrab oladi. Ushbu faollashtiruvchilarga quyidagilar kiradi:

- Biznes elektron pochta kelishuvi;
- Qattiq himoyalangan xosting;
- Anonimlashtirish vositalari;
- Kriptovalyutalarni jinoiy egallab olish;
- Pul tashish (*money muling*).

**Pul tashish** – jinoiy daromadlarni legallashtirishning bir turi. Pulni tashuvchi – bu uchinchi shaxsdan o‘z bank hisobvarag‘iga pul olib, boshqasiga o‘tkazadigan yoki naqd pulda olib, boshqa birovga beradigan, buning uchun komissiya oladigan shaxs.<sup>2</sup>

Ular jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq jinoyatlarda (kiberjinoyatlar, onlayn firibgarlik va boshqalar) bevosita ishtirok etmasalar ham, sheriklar hisoblanishadi, chunki ular bunday jinoyatlardan olingan daromadlarni legallashtirishga yordam beradi va jinoyatchilarga anonim qolishga yordam beradi.

<sup>1</sup> Internet Organized Crime Threat Assessment (IOCTA). URL: <https://www.europol.europa.eu/publications-events/main-reports/internet-organised-crime-threat-assessment>

<sup>2</sup> Money Muling. URL: <https://www.europol.europa.eu/operations-services-and-innovation/public-awareness-and-prevention-guides/money-muling>

Shunday qilib, biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, taraqqiyot bir joyda to‘xtab qolmaydi, jinoyatchilikning yangi elementlari paydo bo‘ladi, jinoyatchilar vaqt o‘tishi bilan yangi innovatsion usullarda jinoyat sodir etadilar, shuning uchun huquqni muhofaza qilish organlarining asosiy vazifasi tez rivojlanayotgan jinoyatchilikdan ortda qolmaslikdan iborat. unga qarshi kurashning eski usullari haqida. Bunda ichki ishlar organlari xodimlarining amaliy faoliyati tajribasini hisobga olish, jinoyatchilikka qarshi ilg‘or, zamonaviy vosita va usullar bilan kurashish zarur.

Umuman olganda, “Darknet” orqali sodir etilayotgan iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash huquq-tartibot tizimini kuchaytirish, aholining xabardorligini oshirish, ma’lumotlar almashishni yaxshilash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirish, yanada mustahkam me’yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rnatish va xususiy sektor bilan ishlashni o‘z ichiga olgan global sa’y-harakatlarni talab qiladi. Dunyo mamlakatlari ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha turli strategiyalarni amalga oshirmoqda va davlatlar o‘rtasida tajribalar almashish va hamkorlik qilish orqali “Darknet” tarmog‘ida sodir etilayotgan iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish va ularga barham berishda muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelindi:

Darknet asosida sodir etiladigan jinoyatlar – bu transchegaraviy hisoblanadi. Shu sababli, davlatlar o‘rtasida o‘zaro ma’lumot almashish, jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirib topish va ularni ekstraditsiya qilish kabi masalalarda o‘z ichiga olgan xalqaro hamkorlik shartnomasi tuzishlari maqsadga muvofiqdir;

Huquqni muhofaza qilish organlari hodimlarining zarur malakasi va tayyorgarligiga yetarlicha e’tibor berib, ularning qorong‘u tarmoq haqida xabardorligini oshirish, ya’ni huquqni muhofaza qilish organlarining tergov qilish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlarning darknet tarmog‘ida tegishli dalillarni aniqlashga o‘rgatish va tergov usullarini takomillashtirish zarur;

Milliy jinoyat-protsessual qonunchiligidan kiberjinoyatlarni tergov qilish va sudda javobgarlik masalasini aniq belgilab berishga xizmat qiladigan ishlar yuzasidan elektron dalillarni to‘plash, olib qo‘yish, tintuv qilish, ularning butunligi va yaxlitligini

ta'minlash, sudda ko'rib chiqish uchun taqdim etish tartibini aniq ko'rsatuvchi qo'shimchalar kirtish lozim deb hisoblaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Александров А. Г., Сафонов А. А., Криминалистика; судебно-экспертная деятельность; оперативно-розыскная деятельность. Использование сети Даркнет при подготовке и совершении преступлений. – 2021;
2. Sudakova T. M., Nomokonov V. A. Understanding the future of criminology: an overview of current trends. Vserossiiskii kriminologicheskii zhurnal / Russian Journal of Criminology, 2018, vol. 12, no. 4, pp. 531–540. DOI: 10.17150/2500-4255.2018.12(4).531-540;
3. Commission Recommendation (EU) 2017/1584 of 13 September 2017 on coordinated response to large-scale cybersecurity incidents and crises C/2017/6100;
4. Kevin Poulsen, "FBI Admits It Controlled Tor Servers Behind Mass Malware Attack," Wired.com, September 13, 2013.

## REFERENCES

1. Александров А. Г., Сафонов А. А., Криминалистика; судебно-экспертная деятельность; оперативно-розыскная деятельность. Использование сети Даркнет при подготовке и совершении преступлений. – 2021;
2. Sudakova T. M., Nomokonov V. A. Understanding the future of criminology: an overview of current trends. Vserossiiskii kriminologicheskii zhurnal / Russian Journal of Criminology, 2018, vol. 12, no. 4, pp. 531–540. DOI: 10.17150/2500-4255.2018.12(4).531-540;
3. Commission Recommendation (EU) 2017/1584 of 13 September 2017 on coordinated response to large-scale cybersecurity incidents and crises C/2017/6100;
4. Kevin Poulsen, "FBI Admits It Controlled Tor Servers Behind Mass Malware Attack," Wired.com, September 13, 2013.

## ARALASH TOLALI IPLARDAN TAYYORLANGAN KUYLAKBOB VA KASTYUMBOP TO‘QIMALARNING YANGI ASSORTIMENT YARATISH

doktorant. **Xo‘jayeva Nigora Toir qizi**  
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

ass. **Xo‘jayev Rasulbek.Qadamboyevich,**  
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

PhD. **Daminov Asror Mahmayusupovich,**  
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

PhD,dots. **Yusupova Nodira Baxtiyarovna**  
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada to‘qimachilikdagi dolzARB masalalar, yangi turdagI aralashma iplardan foydalanib kuylakbop va kastyumbop yangi turlarini yaratish, ularning assortiment turlarini kengaytirish yo‘llari keng taxlili keltirilgan. Kuylakbop va kastyumbop matolar uchun ip tola bozori xam o‘rganildi, kimyoviy tolalar bozorining global hajmi 2022-2030 yilga kelib 117,76 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa CAGR 7,4 foizni tashkil etsa, ipak bozori 2023-2030 yillar prognoz davrida CAGR 6,72 foizni tashkil etgan holda 2030 yilga kelib 36,17 milliard dollargacha kengayishi kutilmoqda. Ipak gazlamasining tarkibi, tuzilishi turli- tuman bo‘ladi. Ipak gazlamalar assortimentining 98% ini kimyoviy tolalardan to‘qilgan gazlamalar tashkil qiladi. Savdo preyskuranti bo‘yicha ipak gazlamalar sakkiz guruhga bo‘linadi, har bir guruhda oltita kichik gruppadan iborat. Demak, bu o‘z navbatida tolaviy tarkibning turli xil nisbatlarda ishlatalishi, ishlab chiqariladigan to‘qimalarning qaysi maqsadlarda foydalanilishiga bog‘liq ekanligini anglatadi.

**Tayanch so‘zlar:** tabiiy ipak, tanda ipi, arqoq ipi, aralashma ip, to‘qima, to‘qima tuzilishi, to‘qima o‘rilishi, to‘qima tarkibi,yuza zichligi.

**Абстрактный.** В данной статье проводится комплексный анализ актуальных вопросов текстиля, путей создания новых видов сорочек и костюмов с использованием новых видов смесовой пряжи, расширения их ассортимента. Также изучается рынок пряжи для рубашечных и костюмных тканей, ожидается, что объем мирового рынка химических волокон достигнет 117,76 млрд долларов США к 2022-2030 гг. при среднегодовом темпе роста 7,4%, а среднегодовой темп роста рынка шелка в прогнозируемый период 2023-2030 гг. ожидается, что к 2030 году он вырастет до 36,17 млрд долларов, что составляет 6,72 процента. Состав и структура шелковой марли различны. 98% ассортимента шелковой марли составляют марли, сотканные из химических волокон. Согласно торговому прейскуранту шелковые ткани делятся на восемь групп, каждая группа состоит из шести подгрупп. А это, в свою очередь, означает, что использование содержания клетчатки в разных пропорциях зависит от целей, для которых используются вырабатываемые ткани.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of current issues in textiles, ways to create new types of shirts and costumes using new types of mixed yarns, and to expand their assortment. The yarn market for shirting and suiting fabrics is also studied, the global chemical fiber market size is expected to reach USD 117.76 billion by 2022-2030, at a CAGR of 7.4%, while the silk market CAGR during the forecast period 2023-2030 It is expected to expand to 36.17 billion dollars by 2030, accounting for 6.72 percent. The composition and structure of silk gauze is different. 98% of the assortment of silk gauzes is made of gauzes woven from chemical fibers. According to the trade price list, silk fabrics are divided into eight groups, each group consists of six sub-groups. So, in turn, this means that the use of fiber content in different proportions depends on the purposes for which the produced tissues are used.

**Key words:** natural silk, warp yarn, jute yarn, mixed yarn, fabric, fabric structure, fabric weave, fabric composition, surface density.

**Kirish.** Xozirgi kunda to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda raqobatbardosh mahsulotlarning assortimentini kengaytirish, tabiiy xomashyolardan foydalanib yuqori ekologik mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi turdagи xomashyolar va ishlov berish usullarini qo‘llash, to‘qimachilik mahsulotlarining sifatini yaxshilash hamda ularga qo‘yilayotgan talab ham jadal suratlarda oshib bormoqda. Dunyo miqyosida “...to‘qimachilik va yengil sanoat bozorida 2020 yilga nisbatan ishlab chiqarish qiymati 2025 yilgacha 26,2 foizni, o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati esa 6,2 foizni tashkil etishi bashorat qilmoqda” [1] bular maxsus har xil texnologik jarayonlar, mahsulotlar tayyorlashga joriy etishni taqozo etadi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentabrdagi “Yengil trikotaj, charm-poyabzal va mo‘yna sanoatini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot turlari va assortimentini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi PQ-4453-son qarorida. sanoat korxonalarini investitsiya qilish va eksport qilish uchun mo‘ljallangan raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, texnik va texnologyalarini qayta jihozlash, buning asosida aholi bandligini ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish vazifalari hal etilmoqda. farovonlik belgilandi.[2]..Hozirgi kunda aralash tolali ip olishda yigirish texnologik jarayonida tolalarni aralashtirish hisobiga olinadigan bo‘lsa, yuqori estetik va gigiyenik ekspluatatsion talablarga hamda jahon talabiga javob beradigan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.Aanan shu imkoniyatlardan foydalanib, biz ham yangi turdagи aralash tarkibli ko‘ylakbop va kastyumbop to‘qimalar assartementini yaratish maqsadida tadtqiqot tahlilimizni boshladik. [3]

O‘zbekiston iqlimi keskin o‘zgarib turadigan kontinental iqlim hisoblanadi. Shaxar va viloyatda kunduzi va kechasi, yozgi va qishki havo harorati keskin farq qiladi. Yillik havo harorati sezilarli darajada yuqori. O‘rtacha nisbiy namlik bahor va kuzda kuchli yog‘ingarchilik tufayli 30-40% gacha ko‘tariladi. Yillik yog‘in miqdori pasttekisliklarda 120 – 200 mm, cho‘l hududlarida 1000 mm ga etadi.Shu boyisdan

kuyalkbop xamda kastyumbop to‘qimalarni tolaviy tarkibga axamyat berish maqsadga muvofiqdir.

**Tabiy va sentetik tolalar taxlili.** Paxta tolalari kam qayishqoqlik va yuqori plastik cho‘zilish bilan tavsiflanadi. Tolaning past qayishqoqligi tufayli paxtali to‘qimachilik mahsulotlari oson g‘ijimlanadi va ularda to‘g‘rlanmaydigan burmalar va ezilishlar hosil bo‘ladi. Paxta tolasining gigroskopikligi boshqa tabiiy tolalarga nisbatan yuqori emas, tolaning yetilish darajasiga ko‘ra u pasayadi. Biroq, paxta tolalarining gigroskopikligi matolarning yaxshi gigiyenik xususiyatlarini ta’minlash uchun juda yetarli. Normal sharoitda paxta tolasining namligi 7-9% ni tashkil qiladi. Paxta tolasining maksimal namligi (100% ga yaqin nisbiy namlikda) 23% ni tashkil qiladi. Suvning sovuq va issiq ta’siriga paxta tolsi chidamli. Issiq suvda ( $150^{\circ}\text{S}$  gacha) qizdirilganda ham paxtaning xususiyatlari yomonlashmaydi..

**Jun** gazlamalar assortimenti yangi konstruktiv va o‘rilishli to‘qimalar ishlab chiqarish, shuningdek, klassik konstruktiv to‘qimalarning tashqi ko‘rinishi va boshqa xususiyatlarini yaxshilash hisobiga yangilanadi. Assortiment turini oshirishning yangi tolaviy tarkibli iplarga bog‘liq ipakdek silliq yuzaga ega yumshoq mayin matolarni, ko‘p rangli melanj ipdan tekis sirtli matolarni, baxmal sirtli matolarni, shu jumladan tukli matolarni to‘qish bilan yangi assortment olish mumkin.

**Sintetik** tolali jun matolar assortimentning kata qismini tashkil qiladi. Sintetik tolalar qo‘shilishi natijasida matolarning qattiqligi ortadi. Laysan qo‘shilgan tolavi tarkibli iplar ko‘pincha ishlatiladi. Laysanli va jun aralashmali matolar ancha pishiq mustaxkam, yorug‘lik va ob-havo ta’siriga chidamli, g‘ijimlanishi kam.

**Nitron** tolali va jun aralashmali to‘qimalar kostyum va ko‘ylak matolari sifatida ishlab chiqariladi. U g‘ijimlanmaydi, kimyoviy reaksyalarga ta’siriga chidamli bo‘ladi.

Tolalar tarkibi, tuzilishi va pardozlash jihatidan ipak matolar xilma-xil bo‘ladi. Ipak matolari assortimentining 98% kimyoviy tolalardan to‘qilgan matolardan iborat.


**Bambuk** tolasining ijobjiy xususiyatlari: xomashyoning yuqori ekologikligi; ajoyib gigiyenik va sog‘lomlashtirish xususiyatlari; gipoallergen; yuqori mustahkam va shu bilan birga yumshoq, elastik va havo o‘tkazuvchan (tabiiy paxtadan 20%

yuqori); ekologik toza bambuk tolasi sutkasiga u bilan aloqada bo‘lgan bakteriyalarning 70% gacha o‘ldirishi isbotlangan va bu ta’sir 5 marta yuvishgacha davom etadi; bambukdan tayyorlangan kiyimlar ultrabinafsha nurlarini 100% gacha ushlab qoladi; silliq bambuk juda yoqimli, hech qachon terlatmaydi, qichishtirmaydi va badanga suqilmaydi va shifo berishiga yordam beradi; suv va yoqimsiz hidlarni yuqori singdirish qobiliyatiga ega; deyarli g‘ijimlanmaydi, yaxshi yuviladi va jozibali ko‘rinishini va iste’mol xususiyatlarini 500 marta yuvishgacha saqlaydi.

**Zig‘irning** gigroskopikligi paxta tolasiga nisbatan yuqori. Zig‘ir tomchili namlikni yaxshi shimadi va bir vaqtning o‘zida uni chiqarib quriydi. Mustahkamligi juda yuqori bo‘lib nam holatda mustahkamligi yana ortadi. Zig‘ir paxtadan ancha mustahkam, yorug‘likdan buzilishga va ko‘p martalik yuvishga chidamli. Zig‘ir antibakterial xususiyatlarga ega bo‘lganligi uchun va gigiyenik paxta ishlab chiqariladi. Zig‘ir tolalarida statik elektr zaryadlari hosil bo‘lmaydi. Kam cho‘ziluvchanlik, past qayishqoqlik, shuningdek yuqori g‘ijimlanish va deformatsiyalanish zig‘ir tolasining kamchiliklari hisoblandi.


**Ipak** to‘qimachilik sanoatida qimmatli tabiy tola hisoblanadi. U ko‘plab sohalarda, masalan, sari, kostyumlar, pardalar va hashamatli nozik to‘qimalar uchun ishlatalidi. Liyon to‘qimachilik tabiiy tolalarning tsellyuloza polimerik mahsulotlari sifatida tasniflanadi. Ular to‘qimachilik, kiyim-kechak va tikuvchilik sohalarida o‘zlarining shaxsiy foydalanishlariga ega. Polyester (PET) kimyoviy va mikrobial hujumlarga juda yaxshi qarshilik ko‘rsatadigan sintetik tola xisoblanadi . Uning xususiyatlari va ishlatalishi ko‘lамини oshirish uchun ipak polyester va liyon bilan aralashtiriladi. Gazlamalar ham tabiiy bo‘yoqlar (kum kum, indigo, bar berry) va sintetik bo‘yoqlar (reakтив bo‘yoq (H), reaktiv bo‘yoq (M) va oltingugurtli bo‘yoq) bilan bo‘yaladi. Ushbu aralash mato k/s qiymati, chidamlilik xususiyati, mikroblarga qarshi xususiyat, havo o‘tkazuvchanligi, ultrabinafsha nurlanishidan himoyalanish kabi ba’zi asosiy xususiyatlar uchun 100% ipak bilan taqqoslanadi. Ipak aralash mato 100% ipak matoga nisbatan sezilarli natijalar beradi.(4)

Kuylakbop va kastyumbop matolar uchun tolali aralashma tarkibi turli ulushlarda bo‘lgan yigirilgan ipdan to‘qilgan matolar xossalari, to‘quv parametrlari va ko‘rsatkichlarini kompleks baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ipak va kimyoviy iplaridan aralash kuylakbop va kostyumbop to‘qimalar ishlab chiqarish uchun bir qancha o‘rganishlar olib borilmoqda . Aynan ipak tolalar bozori o‘rganildi. Global ipak bozori 2022 yilda 20,35 milliard dollarga baholandi va 2023-2030 yillar prognoz davrida CAGR 6,72 foizni tashkil etgan holda 2030 yilga kelib 36,17 milliard dollargacha kengayishi kutilmoqda. 1-rasm



1-rasm Global ipak bozori 2022-2030 yilar

Keyingi navbatda kimyoviy tolalar bozori hajmi, ulushi va tendentsiyalari tahlili hisoboti turi (akril, poliester, neylon), qo‘llanilishi bo‘yicha (kiyim, uy jihozlari, filtrlash), mintaqasi va segmentlar bo‘yicha prognozlar, 2023 - 2030 yillar ulishlarini 2-rasmida ko‘rishingiz mumkin.



2-rasm Global Kimyoviy tola bozori 2022-2030 yilar

kimyoviy tolalar bozorining global hajmi 2030 yilga kelib 117,76 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa CAGR 7,4 foizni tashkil etadi. Iste'molchilar ning tejamkor, bardoshli, yuvilishi oson va parvarish qilinadigan kimyovi matolarga bo'lgan talabining oshishi prognoz davrida bozorning o'sishiga olib kelishi kutilmoqda.

Bozorlarning bu narxlari ko'lakbop va kastyumbop matolar ishlab chiqarish uchun katta axamyatga ega .

## ХУЛОКА

Qilingan taxlilardan shuni anglash mumkin aralashma iplardan olinadigan to'qimalar ishlatilish ko'lami va talbgorlarning extiyojidan, kelib chiqib to'qima assartmentini ishlab chiqarishda tolaviy tarkimini ham inobatga olish lozimdir. Ko'lakbop va kastyumbop matolar uchun tolali aralashma tarkibi turli ulushlarda bo'lgan yigirilgan ipdan to'qilgan matolar xossalari, to'quv parametrlari va ko'rsatkichlarini kompleks baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kuylakbop va kastyumbop matolar uchun ip tola bozori xam o'rganildi, kimyoviy tolalar bozorining global hajmi 2022-2030 yilga kelib 117,76 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa CAGR 7,4 foizni tashkil etsa, ipak bozori 2023-2030 yillar prognoz davrida CAGR 6,72 foizni tashkil etgan holda 2030 yilga kelib 36,17 milliard dollargacha kengayishi kutilmoqda. Ipak gazlamasining tarkibi, tuzilishi turli- tuman bo'ladi. Ipak gazlamalar assortimentining 98% ini kimyoviy tolalardan to'qilgan gazlamalar tashkil qiladi. Savdo preyskuranti bo'yicha ipak gazlamalar sakkiz guruhga bo'linadi, har bir guruhda oltita kichik gruppadan iborat. Ipak gazlama artikulining birinchi raqami guru nomerini, ya'ni tola tarkibini, artikulning ikkinchi raqami kichik guruppa nomerini, ya'ni gazlamaning tuzilishi va nimaga ishlatilishini ko'rsatadi. tanlash lozim hamta natijalariga ko'ra arqoq bo'yicha zichlikning oshib borishi to'qima tolaviy tarkibining o'zgarishi, ya'ni, tolaviy tarkibda paxta tolasining kamayib borishi natijasida tanda va arqoq bo'yicha uzilish kuchining oshishi, havo o'tkazuvchanligining kamayishi, gigroskoplik ko'rsatikchining esa ortib borishi kuzatildi. Bu albatta to'qimani ishlab chiqarishda ishlatilgan aralash tolalarning ulishlariga bog'liq va to'qimaning o'riliishi hamda zichligiga bog'liqdir. Demak, bu o'z navbatida tolaviy tarkibning turli xil

nisbatlarda ishlatalishi, ishlab chiqariladigan to‘qimalarning qaysi maqsadlarda foydalanimishiga bog‘liq ekanligini anglatadi.

## REFERENCES

1. Обзор лёгкая промышленности Великобритания. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [www.marketsandmarkets.com/Market-Reports/technical-textile-market-1074](http://www.marketsandmarkets.com/Market-Reports/technical-textile-market-1074) 6.
2. Ўзбекистон республикаси ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар ва қўшимча киритиш тўғрисида (ўзбекистон республикаси президентининг «енгил саноатни янада ривожлантириш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2019 йил 16 сентябрдаги пқ-4453-сон қарори)
3. Рахимходжаев С.С., Ортиков О.А., Мирзаханов М.М. Проектирование и исследование шёлковой ткани по заданной пористости и воздухопроницаемости. Сборник НИР, ТИТЛП, 2012 г.
4. Алимбаев Э.Ш. Мато тузилиши назарияси. Тошкент: Алоқачи, 2005 й.- 231 б.
5. Ражапова Марғуба Назимовна, Хабибуллаева Шодия Собирқул қизи. Кўйлакбоп газламаларни физик-механик хоссалари бўйича комплекс баҳолаш / “Yengil sanoat tarmoqlari ,muammolari, tahlil va yechimlari” Farg‘ona Politexnika instituti ilmiy-texnik anjumani. Фарғона 2022 й 151-6.
6. [www.researchandmarkets.com](http://www.researchandmarkets.com)

## INTERNET TARMOG‘IDA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING DOLZAB MASALALARI

**Abduxamidov Sardor Abduvali o‘g‘li**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tinglovchisi

[abdukhamidovsardor1515@gmail.com](mailto:abdukhamidovsardor1515@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada bugungi kunda Internet tarmog‘ida shaxsiy daxlsizlik huquqi tushunchasi, ushbu huquqning kibermakonda buzilish holatlari va mazkur huquqni huquqiy jihatdan himoya qilishning o‘ziga xos murakkabliklari muhokama qilingan. Shuningdek, muallif maqolada sun’iy intellekt texnologiyalari tomonidan shaxsiy daxlsizlik huquqini buzish holatlari haqida ham to‘xtalib, yakunda o‘z qarashlarini bayon qilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Shaxsiy daxlsizlik huquqi, Internet, inson huquqlari, Sun’iy intellekt, ChatGPT.*

## ACTUAL ISSUES OF PROTECTING RIGHT TO PRIVACY ON THE INTERNET

### ABSTRACT

*This article discusses the concept of the right to privacy, cases of violation of this right in cyberspace and specific complexities of legal protection of this right on today’s Internet. Moreover, in the article, the author also touched on cases of violation of the right to privacy by artificial intelligence technologies, and finally expressed his views.*

**Keywords:** *Right to privacy, Internet, human rights, Legal regulation, Artificial intelligence, ChatGPT.*

Hozirgi davrda dunyoda hech bir davlat yoki mintaqqa internetning ta’siri yoki u keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan zaifliklardan himoyalangan emas. Bugun axborot texnologiyalari rivojlanishning shunday bosqichiga kirdiki, endilikda uni hech qanday kuch to‘xtata olmasligi tobora oydinlashib bormoqda [1]. Bunday jadal rivojlanish

sharoitida kibermakonda bo‘ladigan munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, inson huquqlarini, shu jumladan, shaxsiy daxlsizlik huquqini ta’minlash davlatlar va qator xalqaro tashkilotlar oldida o‘ziga xos qiyinchiliklarni va aytish mumkinki yechimi o‘ta murakkab bo‘lgan muammolarni tug‘dirmoqda.

Ilmiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Internet tarmog‘ida inson huquqlarini, xususan, shaxsiy daxlsizlik huquqini himoya qilish masalasi milliy olimlarimiz tomonidan o‘rganilmagan. Shu sababli, ilmiy maqolada asosan, chet ellik olimlarning ilmiy ishlariga murojaat qilindi.

Kay Mathisen, Sofie Stalla-Bourdillon, Joshua Filips, Mark D. Ryan, Bart Custers, Michael McFarland, Warren, S.D., Brandeis kabilar shaxsiy daxlsizlik, xususan internet tarmog‘ida shaxsiy daxlsizlik huquqini himoya qilish bo‘yicha tadqiqot olib borgan.

Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), statistik usullaridan foydalanildi.

Qayd etish kerakki, bugungi kunda inson huquqlari tobora ko‘proq internet tarmog‘ida amalga oshirilmoqda va tabiiyki, eng ko‘p internet tarmog‘ida buzilmoqda [2]. Shu sababli, internetdan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solishga oid xalqaro standartlarni ishlab chiqish bugun har qachongidanda dolzarb hisoblanadi.

**Internetni huquqiy jihatdan tartibga solish** – bu hukumatlar tomonidan fuqarolar internetda nimalardan foydalanishi mumkinligi, nimalardan foydalanishi mumkin emasligi, tranzaksiyalar qanday amalga oshirilishi, kelishmovchiliklar qanday hal qilinishi va qonunlar hamda qoidalarning buzilishiga davlat qanday munosabatda bo‘lish kerakligini aks ettiruvchi bayonotlar va deklaratsiyalardir. Bu ko‘p hollarda foydalanuvchilarga internet orqali nimalarni qilishi mumkinligini tushunishga yordam beradi [3].

Internetdan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solishning dolzarbligini quyidagicha izohlash mumkin. Internet butun dunyoda keng tarqalmoda va internetdan foydalanuvchilar soni shiddat bilan o‘sib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, avvalo, inson huquqlari, xususan, shaxsiy daxlsizlik huquqi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlantirilishi ham internet tarmog‘ida inson huquqlarini ta’minlashni murakkablashtirmoqda.

**Shaxsiy daxlsizlik** – bu fundamental inson huquqi bo‘lib, avtonomiya va inson qadr-qimmatini himoya qilish uchun muhim hisoblanib, boshqa ko‘plab inson huquqlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsiy daxlsizlik begona shaxslarning muayyan shaxsning shaxsiy hayotga asossiz aralashuvlaridan himoyalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Hukumatning xavfsizlikni ta’minlash borasidagi choralari ko‘pincha shaxsiy daxlsizlik huquqiga aralashishga olib kelmaydi, masalan, telekommunikatsiyaning keng ko‘lamli monitoringini. Biroq shaxsga doir ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash davlatlar tomonidan emas, balki Google, Meta(Facebook), Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlar va Apple, Microsoft kabi ulkan xususiy korporatsiyalar tomonidan amalga oshirish orqali shaxsiy daxlsizlik huquqini qay darajada kafolatlash mumkin degan asosli savolni tug‘dirishi tabiiy. Zero, ular davlat tomonidan ta’minlanishi mumkin bo‘lgan huquqlar himoyasini, odatda, kafolatlay olishmaydi. Vaholanki, bugungi kunda shaxsga oid ma’lumotlarning internet tarmog‘ida tarqalib ketish holatlarini kam deb bo‘lmaydi.

Hukumat nazoratidan tashqari, korporativ ma’lumotlarni yig‘ish nuqtai nazaridan, millionlab Google foydalanuvchilari o‘zlarining qidiruvlari Google tomonidan doimiy ravishda ro‘yxatga olib borilishini e’tirof etishadi. Shu sababli, ba’zi mualliflar shaxsiy hayotni himoya qilish davri nihoyasiga yetdi, degan fikrni ilgari surishadi va buni quyidagilar bilan asoslashga harakat qilishadi.

**Birinchidan**, deyarli hamma narsa ro‘yxatga olib boriladigan raqamli jamiyat shaxsiy daxlizlik huquqini ta’minlashga kamroq joy qoldiradi.

**Ikkinchidan**, ko‘p odamlar o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlariga qiziqmaydilar (yoki e’tiborsizlik qiladilar).

**Uchinchidan**, terrorchilik xurujlarining oldini olish va uyushgan jinoyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik bilan bog‘liq manfaatlar shaxsiy daxlsizlik manfaatlaridan muhimroq hisoblanadi [4].

Biroq boshqa bir yondashuvga ko‘ra, shaxsiy daxlsizlik huquqi, ehtimol, hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari bilan bog‘liq muhokama qilinadigan birinchi eng asosiy huquqdir [5] va bu, ehtimol, raqamlı texnologiyalar nuqtai nazaridan eng ko‘p muhokama qilinadigan [6] va qilinishi lozim bo‘lgan inson huquqidir.

Shaxsiy daxlsizlik huquqining qay darajada dolzarbligi va muhimligini quyidagi bir qancha muhim sabablar bilan asoslash mumkin:

**Birinchidan**, nozik shaxsiy ma’lumotlarning oshkor etilishi bilan insonga osongina zarar yetkazish(ta’sir ko‘rsatish va uni boshqarish) mumukin va buning ko‘plab usullari mavjud. Misol uchun, shaxsiy yoki oilaviy siri, tibbiy ma’lumotlar, psixologik testlar va suhbatlar, sud hujjatlari, moliyaviy hisobotlar - banklar, kredit byurolari yoki IRS - ijtimoiy yozishmalar, Internetda tashrif buyurilgan saytlar va boshqa turli manbalarda inson hayotining ko‘plab tafsilotlari mavjud [7].

**Ikkinchidan**, shaxsiy daxlsizlik huquqi o‘z taqdirini o‘zi belgilashi lozim degan g‘oyani ilgari suradi. Albatta, bunda ham ma’lum chegaralar mavjud, ammo inson o‘z hayotini boshqarishning muhim usullaridan biri bu kim bilan va qanday munosabatda bo‘lishini tanlay olishidir.

**Uchinchidan**, shaxsiy daxlsizlik insonlarga erkin qaror qabul qilish va o‘z fikrini erkin bayon eta olish imkoniyatini beradi.

Odatiy insonning ijtimoiy hayoti boy va rang-barang bo‘lib, u juda ko‘p turli xil rollar va munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Ularning har biri o‘z “shaxs”ini, o‘z “yuz”ini talab qiladi. Bu ikkiyuzlamachilikni anglatmaydi, shunchaki shaxsiyatning turli tomonlari turli rollarda namoyon bo‘lishini bildiradi. Shu sababli, shaxsiy ma’lumotlar ustidan nazorat qilinishi, uning qanday va kimga oshkor etilishi insonning jamiyatdagi o‘z o‘rnini tanlash va amalga oshirish qobiliyatida muhim rol o‘ynaydi [8].

Tadqiqotlarga ko‘ra, muayyan shaxs o‘zining nozik shaxsiy ma’lumotlaridan xabardor boshqa shaxslar tomonidan **shantaj yoki tovlamachilik** qurbaniga aylantirilish ehtimoli yuqori.

Bundan tashqari, bugungi davrda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlantirishi shaxsiy daxlsizlik huquqiga nisbatan yangi xatarlar keltirib

chiqarmoqda. Xususan, 2023-yil 31-mart kuni Italiyaning shaxsiy daxlsizlik bo‘yicha milliy regulyatori OpenAI yaratuvchilarini “shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy yig‘ish”da ayblab, ChatGPT sun’iy intellekt chatbotidan foydalanishni samarali tarzda cheklash bo‘yicha taqiqni joriy etdi [9]. Italiyaning shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish agentligi bu harakatni “ChatGPT shaxsiy daxsizlikni hurmat qilmaguncha davom etadigan” vaqtinchalik chora deb atadi [10]. Ma’lum bo‘lishicha, 2023 yilning 20 mart kuni chatbotda ma’lumotlardagi buzilish tufayli ba’zi foydalanuvchilar boshqa foydalanuvchilarning xabarlari va suhbatlar tarixini, shuningdek, pullik xizmat abonentlarining ismlari, familiyalari, elektron pochta manzillari va to‘lov ma’lumotlarini ko‘rishlari mumkin bo‘lib qoldi.

Agentlik OpenAI ning **ma’lumotlarni to‘plash amaliyotini** va ChatGPT ma’lumotlar bazasida saqlanuvchi ma’lumotlarning qamrovi qonuniyligini shubha ostiga qo‘ydi. Agentlik, shuningdek, chatbotda voyaga etmaganlarning nomaqbul javoblarga duchor bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun yoshni tekshirish tizimining mavjud emasligi muammosiga ham duch keldi [11].

Italiya dunyoda birinchi bo‘lib bunday ta’qiqni joriy etgan davlat bo‘lsada, shunga o‘xhash qo‘rquv va xavotirlar butun dunyoda, shu jumladan AQShda ham kuchayib bormoqda. Misol uchun, 2023 yilning aprel oyi boshida sun’iy intellekt va raqamli siyosat markazi (Center for AI and Digital Policy) Federal Savdo Komissiyasi(Federal Trade Commission)ga ChatGPT ning so‘nggi versiyasi bo‘lgan GPT-4 ustidan shikoyat bilan murojaat qilib, uni “keng miqyosda ommaviy kuzatuvni amalgaloshirish” qobiliyatiga ega ekanligini ma’lum qildi [12].

Ta’kidlash joizki, shu kunga qadar ham 1000 dan ortiq sun’iy intellekt bo‘yicha ekspertlar, tadqiqotchilar va qo‘llab-quvvatlovchilar, jumladan, Tesla bosh direktori Ilon Mask OpenAI kabi “gigant” sun’iy intellekt yaratuvchi kompaniyalarining “hech kim tushuna olmaydigan, (harakatlarini) oldindan bashorat qila olmaydigan yoki ishonchli tarzda nazorat qila olmaydigan yanada kuchli raqamli sun’iy intellektlar”ni yaratishni kamida olti oyga zudlik bilan to‘xtatishiga chaqirib kelgan [13].

Xulosa qilib aytganda, bugungi davrda dunyo davlatlari oldida yangicha talab - inson huquqlarini nafaqat an'anaviy shaklda (oflaynda) ta'minlash, ayni paytda ushbu huquqni onlayshaklda ham xavfsiz amalga oshirishga imkon yaratish vazifasi dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, internet tarmog'ida shaxsiy daxlsizlik huquqini lozim darajada himoya qilish maqsadida "Xavfsiz onlayshaklda muhit to'g'risida"gi va "Internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar[14]ni qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, aholi orasida internet tarmog'ida shaxsiy va oilaviy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlashga oid yo'riqnomalar va qo'llanmalar ishlab chiqish hamda bu to'g'risida doimiy tushuntirishlar olib borish lozim.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Internet Law. A concise guide to regulation around the world. Edward Swan.
2. Kay Mathisen, "Raqamli asrda inson huquqlari" Arizona universiteti professori.
3. Internet Law. A concise guide to regulation around the world. Edward Swan.
4. BOOK REVIEW, Review of Privacy vs Security, Privacy vs Security, Sophie Stalla-Bourdillon, Joshua Philips and Mark D. Ryan, Springer, Springer Briefs in Cybersecurity, pp. 1–115, Softcover: €52.99, 2014, ISBN: 9781447165293
5. Warren, S.D., and Brandeis, L.D. (1890) The right to privacy; the implicit made explicit, Harvard Law Review, p. 193-220. The earlier technologies of the industrial revolution (such as the steam engine) and discussions on human dignity related to it are not considered to be information technologies.
6. New digital rights: Imagining additional fundamental rights for the digital era, Bart Custers, computer law & security review 44 (2022) 105636
7. Why We Care about Privacy, Michael McFarland, S.J. Markkula Center for Applied Ethics at Santa Clara University;
8. Why We Care about Privacy, Michael McFarland, S.J. Markkula Center for Applied Ethics at Santa Clara University;

9. Italian regulators order ChatGPT ban over alleged violation of data privacy laws,

<https://www.theverge.com/2023/3/31/23664451/italy-bans-chatgpt-over-data-privacy-laws;>

10. Italy's privacy watchdog bans ChatGPT over data breach concerns,

<https://www.theguardian.com/technology/2023/mar/31/italy-privacy-watchdog-bans-chatgpt-over-data-breach-concerns;>

11. ChatGPT is temporarily banned in Italy amid an investigation into data collection, [https://www.npr.org/2023/03/31/1167491843/chatgpt-italy-ban-openai-data-collection-ai;](https://www.npr.org/2023/03/31/1167491843/chatgpt-italy-ban-openai-data-collection-ai)

12. CAIDP FTC Complaint, In the matter of Open AI, March 30, 2023 (NOW LIVE), <https://www.caidp.org/cases/openai/>;

13. Italy's privacy watchdog bans ChatGPT over data breach concerns, <https://www.theguardian.com/technology/2023/mar/31/italy-privacy-watchdog-bans-chatgpt-over-data-breach-concerns;>

14. Huquq va raqamlashtirish. Право и цифровизация. Law and digitalization. (и многое другое) telegram kanali. URL: <https://t.me/lawdigital888>;

## MA’LUMOTLAR BAZASIDA TRANZAKTSIYA VA UNI MUVOFAQQIYATLI YAKUNLASH

**Sohibov Tolib Fayzullaevich**

Buxoro muhandislik texnologiya instituti

[stolib@mail.ru](mailto:stolib@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ma’lumotlar bazasida tranzaktsiya va uni amalga oshirilishi hamda uni muvoffaqiyatli yakunlanishi muammosini qanday hal qilish bo‘yicha fikrlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *MB, MBBT, tranzaktsiya, BEGIN TRANSACTION, COMMIT TRANSACTION, SAVE TRANSACTION, ROLLBACK.*

### **ABSTRACT**

*This article provides ideas on how to solve the problem of a transaction in a database and its implementation and its successful completion.*

**Keywords:** *MB, MBBT, transaction, BEGIN TRANSACTION, COMMIT TRANSACTION, SAVE TRANSACTION, ROLLBACK.*

### **KIRISH**

Ma’lumotlar bazasi (MB) ma’lum bir soha ma’lumotlarini saqlash va undan ko‘p sonli foydalanuvchilar foydalanishi uchun yaratiladi. MBga ko‘p foydalanuvchilar murojaat qilishadi va bu murojaatlar tranzaktsiya deyiladi.

**Tranzaktsiya** – MB dan ma’lumotlarni olish yoki undagi ma’lumotlarni o‘zgartirish uchun foydalanuvchi yoki amaliy dastur tomonidan MB ga berilgan operasiya yoki operasiyalardir.[1]

MB bilan ishslashda xatolar va nosozliklar istisno qilinmaydi. Ular ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT) bilan o'zaro aloqada bo'lgan foydalanuvchi xatolari yoki kompyuterlardagi va tarmoqdagi nosozlik tufayli yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun, MBBT bunday xatolarga sabab bo'lgan harakatlarni bekor qilishda maxsus usullardan foydalanadi. Shuningdek, foydalanuvchi harakatlari tugaganidan keyin nima sodir bo'lishini dasturchilar loyiha jarayonida belgilashi lozim: MBga kiritilgan o'zgarishlar qoladimi yoki ular e'tiborga olinmaydimi.[2]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Tranzaktsiya MBdag'i bo'linmas harakat sifatida qaraladi va har safar MB sessiyasi sodir bo'lganda tranzaktsiya boshlanadi.[1]

Antropogen ta'sir natijasida Orol dengizining qurishi, Orolbo'yi hududining geoekologik sharoiti tubdan o'zgarib, ekologik inqiroz zonasiga aylantirdi. Orol dengizi keyingi 40-45 yil ichida yildan – yilga qurib, ikkita qismga, ya'ni katta va kichik dengizlarga bo'lindi (1-jadval). 2007 yili dengiz sathi 29-metrga pasayib, Orol dengizi havzasining maydoni 6 barobar, suv hajmi 1064 km dan 80 km ga, suvning sho'rliги g'arbiy qismida 110-112 g/l, sharqiy qismida 280 g/l ga yetdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida umumiy ekin maydonlarini sho'rangan tuproqlar tashkil etib, shundan kam sho'rangan 26,2%, o'rtacha sho'rangan 37,4%, kuchli darajada sho'rangan 35,2%, juda kuchli sho'rangan yerlar 12% ga teng. Tuproqlarning bonitet ko'rsatkichlari o'rtacha 41 ballni tashkil etib, hozirgi paytda ham bonitet ballini pasayishi davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi ma'dumotlariga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida keyingi yillarda tuberkulyoz, bo'qoq, anemiya, saraton va asab tizimi kasalliklari ko'payib keng tarqalmoqda. Kasalliklarning oldini olish uchun birinchi navbatda respublika aholisining iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilash lozim. Dastlab Respublika aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash juda katta ahamiyatga ega.

Sababi hozirgi paytda hududdagi ichimlik suvining 55,9% sanitar kimyoviy talablarga, 16,2% mikrobiologik talablarga javob bermaydi. Amudaryoning ko'yish joyida suvsizlik yillari suvning minerallashuvi 0,8 -1,6 g/l, Sirdaryoda 1,5-2,0 g/l ga ortdi. Suv resurslarining yetishmasligi va sifatining pasayishi natijasida o'simlik va tuproq qoplami degradatsiyaga uchrab, hududning fauna va florasi tubdan o'zgarishga uchradi. Keyingi 12 yil ichida Orol dengizining qurigan qismida 200 ming gektardan ortiq cho'lda o'suvchi saksavul va boshqa har-hil o'simliklar ekilmoqda (har yili o'rtacha 20 ming ga).

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi ekologik holat va mavjud ekologik vaziyatni o‘rganish, uni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur. Yuzaga kelgan ekologik holatni o‘rganish va uni oldini olish chora tadbirlarni ishlab chiqish uchun



aerokosmik materiallardan foydalanish maqsadga muofiqdir.

### **1-rasm. Orolbo‘yi Orol dengizining 1994 va 2004 yillardagi o‘zgarishi.**

Ohirgi yillarda aerokosmik suratlardan bir qancha ma’lumotlar, shuningdek ekologik, atrof muxit ifloslanishi, tabiiy resurslarning holatini o‘rganish va tabiatni muhofaza qilish, oldini olish chora tadbirlarini rejalshtirish kabi maqsadlarda foydalanilmoqda. Shu nuqtai nazardan, aerokosmik suratlardan olingan ma’lumotlar katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu o‘z navbatida Orolbo‘yi Orol dengizining 1994 va 2004 yillardagi o‘zgarishi hudud haqida foy-dali va zarur ma’lu-motlarni olish imkonini beradi.

Aerokosmik suratlarni deshifrovka qilish Suratdagi obekt ko‘rinishining strukturasi juda muhim ahamiyatga ega. Ba’zi bir obektlarning ko‘rinishi tuzilishi va belgilari, ularning soyasi, turi, katta-kichikligi, o‘lchami, geometrik tuzilishi ya’ni, umuman olganda yuqoridagi ko‘rsatkichlarning umumiyligi ko‘rinishidir.

Geoekologik tadqiqotlarda aerokosmik suratlarni deshifrovka qilishda obektlar soyalariga ham e'tibor beriladi. Sababi aerokosmik suratlardagi obektlar ko'rinishi juda xam o'zgaruvchan bo'ladi.

### *Aerokosmik suratlardagi obektlarning rangining ko'rinishiga qarab ajratish*

**1-jadval**

| <b>Ranglar darajalarini ko'rsatish ballari</b> | <b>Ranglarning nomlari</b> | <b>Ajratish prinsipi</b>  | <b>Optik zichlikning yuqori va quyi chegaralari</b> |
|--|----------------------------|---|---|
| 1  | Juda tiniq rang            | Suratdagi rangni ko'z bilan ajratib bo'lmasligi va ko'z ilg'ammas darajada ekanligi |   |
| 2  | Juda ochiq kulrang         | Suratdagi ranglarni ko'z bilan ko'radigan darajada                                  |   |
| 3  | Ochiq kulrang              | Suratdagi obekt ranglarning ko'rinishining minimal zichligi                         |   |
| 4  | Kulrang                    | Suratdagi obekt ko'rinishining o'rtacha zichligi                                    |   |
| 5  | To'q kulrang               | Suratdagi obekt ko'rinishining minimal zichligi                                     |   |
| 6  | Qora, kulrang              | Suratdagi obekt ko'rinishining maksimal zichligi va ortiqcha rangda ekanligi        |   |
| 7  | Qora rang                  | Suratdagi obekt rangini ko'z bilan ajratib bo'lmaydi                                |   |

Aerokosmik suratlardan olingan ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish va ular orqali kartalarni yaratishga hozirgi kunga kelib Geografik axborot tizimlari (GAT) dan foydalanilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi geoekologik kartasini yaratishda avvalambor hududning aerokosmik suratlaridan keng foydalanish maqsadga muofiqdir. Aerokosmik suratlardan olingan ma'lumotlar Geografik axborot tizimining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Fazoviy ma'lumotlar Geografik axborot tizimi bilan ishlovchi tomonidan jadval ko'rinishida yoki fotosurat holatida to'planishi mumkin. Bu to'plangan fazoviy ma'lumotlar boshqa to'plangan statistik, kartografik,

dala ekspeditsion, geodezik ma'lumotlar bilan birlashtirilib tahlil qilinadi va Geografik axborot tizimi uchun ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.

Bu dastur yordamida aerokosmik surat ustidan koordinata sistemasiga ulash imkoniyati mavjud. Bunda suratning har bir qayrilish burchagidan nuqtalar olinib WGS 1984 koordinata sistemasiga ulanadi. Bu yerda biz bilamizki, ma'lum bir obekt tanlanganligini hisobga olgan holda proyeksiya tanlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun Gauss-Kryuger proyeksiyasini tanlash maqsadga muofiq. Keyingi jarayon to'plangan aerokosmik, statistik, kartografik, geodezik va boshqa ma'lumotlar asosida ma'lumotlar bazasi yaratiladi va yaratilgan ma'lumotlar bazasidan foydalanib karta qanday maqsadda ishlatilishiga qarab jixozlanadi.

Asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi geoekologik kartasi uchun landshaft turlarining, konturlari, landshaftlarga antro-pogen ta'sir oqibatlari va darajalari, tabiiy va antropogen jarayonlar turlari o'simlik dunyosi, xayvonot olami, sanoat chiqindilarini atmosfera havosini ifloslantiruvchi toifalari, yer osti va yer usti suvlari ifloslanganlik darajalari hamda Orol dengizining hozirgi holati, suv va tuz balanslari, 1961 yildan boshlab Orol dengizining o'zgarish dinamikasi kabi ma'lumotlar bazasini yaratish kerak bo'ladi.

Yaratilgan ma'lumotlar bazasi asosida karta dasturi va legendasi ishlanib chiqiladi. So'ngra Geografik axborot tizimida karta loyihalanib uning mualliflik originali chiziladi. Ishning oxirida tayyor bo'lgan kartani chop etish uchun maxsus qurilmaga buyruq beriladi.

Kelajakda Qoraqalpog'iston Respublikasi ekologik holatini o'rghanish, ularni oldini olish chora-tadbirlarni ishlab chiqish, tabiatni muhofaza qilish, ekologik, geoekologik va boshqa maqsadlar uchun tuziladigan kartalarni loyihalash va tuzishda, hududning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini yaxshilashda aerokosmik ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muofiq deb hisoblaymiz.

**Xulosa.**

Bir so‘z bilan aytganda, tabiiy muhit cho‘llanishini optimallashtirishning geoekologik boshqarish texnologiyalarini ishlab chiqish orqali bajarilishi, hozirgi sharoitda ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, tabiatdan oqilona foydalanishni optimallashtirish, ekologik muvozanatni barqarorlashtirish, atrof muhitga chiqindilarni chiqarishni kamaytirish, cho‘llanishni o‘rganish, unga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqishni shu hududning kartasini yaratish va ushbu kartalar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

**ADABIYOTLAR**

1. Knijnikov Y.F. Aerokosmicheskoye zondirovaniye. Metodologiya, prinsipi, problemi. – M.: MGU, 1997.
2. Mirzaliyev T., Safarov E.Y., Egamberdiyev A., Qoraboyev J.S. Kartashunoslik. – Toshkent.: “CHo‘lpon”, 2012.
3. Sturman V.I. Ekologicheskoye kartografirovaniye. – M.: “Aspekt-Press”, 2003.
4. Safarov E.Y. Geografik axborotlar tizimlari Toshkent, U, 2010.y.
5. Safarov E.YU, Musayev I., Abduraximov X.A Geografik axborotlar tizimlari va texnologiyalari T.2010.

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI JANUBIY OROLBO'YI TUPROQ****TARKIBI VA O'SIMLIK DEGRADATSIYASI  
KARTALASHTRISH METODIKASI**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti.

Dotsent, **Fayziev Shohruh Shamsiy o'g'li.**

Magistrant. **Eshtemirova Lobar Boymurod qizi.**

**Kirish.** Kartada cho'llanish sinflari mos ranglarda berilgan. Barcha sholizorlar cho'llanishga uchramaydigan maydonlar sifatida tasvirlangan, chunki bu yerlar tabiat muhitining yomonlashuviga ta'sir qilmaydi.

Har bir kontur butun bo'lgan alohida cho'llanishi sinfi orqali berilgan. Agar bir konturda ikkita sinf berilishi ko'rsatilgan joylarda (masalan: 50:50 yoki 40:50 foiz maydonga nisbatan) har bir ustun, sinf bir-biriga mos rangda ko'rsatilgan. Cho'llanishning bunday murakkab konturlari geo va ekotizim xususiyatlari bilan bog'liq.

**Asosiy qsim.** Janubiy Orolbo'yi cho'llanishining hozirgi holatida cho'llanish turlari quyidagicha:

1. O'simlik degradatsiyasi.
2. Suv eroziyasi.
3. Tuproq sho'rlanishi.
4. Grunt suvlari tartib darajasini o'zgarishi.
5. Texnogen cho'llanish.
6. Tuproq holatining yomonlashuvi.

Cho'llanish sabablari:

- ✓ texnogen eroziya, avto transport harakatidan hosil bo'luvchi changlar;
- ✓ shamol natijasida grunt tuproqlarining namligi kamayib ketishi va o'simliklarni siyraklashuv jarayoni;

- ✓ tuproq va sho‘r tuproqlarning yuqori qatlami qurishi natijasida yoyiluvchi tuz va substratlar;
- ✓ grunt suvlarining bug‘lanishi natijasida o‘silik ildiz tizimida tuz yig‘ilishi;
- ✓ ko‘l va botqoqlarni qurishi natijasida tuproqda tuz yig‘ilishi;
- ✓ o‘zanga suv kelishi to‘xtab qolishi natijasida buta-daraxtzorlar ahvolining yomonlashuvi;
- ✓ o‘zanga suv kelishi to‘xtab qolishi natijasida o‘tloq va yaylovlar ahvolining yomonlashuvi;
- ✓ tuproq sho‘rlashi darjasining o‘sishi natijasida golofit turkum maydonlarining kengayishi;
- ✓ buta daraxtzorlarning kesilishi;
- ✓ mayjud bo‘lgan foydali ish koeffitsiyenti samarasining pastligi va grunt suvlar sathining yer betiga yaqinligi;
- ✓ oqava suvlar oqimi natijasida ko‘l va suv havzalari ahvolining yomonlashuvi;
- ✓ suv havzalari sathining tushib ketishi natijasida ularning qurib qolishi va sho‘rlashishi;
- ✓ suv havzalarining qurishi natijasida ulardan ko‘tariladigan chang va tuzlar;
- ✓ jarlar eroziyasi va tekisliklar yuvilishi.

Yuqoridagi kursatkichlar asosidatakidlab utilganidek bu hududlarda cho‘llanish sabablari anchayin murakkab bo‘lib, eko va geotizimlarning makonlari murakkabligi konturlarning ko‘pligiga sabab bo‘ladi. Inson xo‘jalik faoliyatining turli sabablari ham cho‘llanish turiga ta’sir ko‘rsatadi. Orol dengizining qurigan qismida cho‘llanishning uchta turi ko‘rsatilgan:

1. Tuproq va sho‘r tuproqlarning yuqori qatlami qurishi natijasida yoyiluvchi tuz va substratlar.


2. Suv havzalari sathining tushib ketishi natijasida ularning qurib qolishi va sho‘rlashishi.

3. Suv havzalarining qurishi natijasida ulardan ko‘tariladigan chang va tuzlar. Qolgan sabablari Amudaryo deltasi tekkisligiga tegishli.

Har bir kontur bir emas, bir nechta sabablarga ko‘ra rivojlangani uchun, har bir sabab alohida harflar bilan ham belgilangan (“a”, “b”, va h.k.). Shunday qilib, har bir ekotizim sinf (rang), tur (rim harfi) va cho‘llanish sabablari (harf) bilan belgilangan.

**Tadqiqot natejasi.** Aerokosmik metodlar asosida va GIS dasturlaridan foydalanib, kartalarning geografik asosini yaratish jarayonida CHo‘llanish murakkab, ko‘pgina omillarni qamrab olgan tabiiy-geografik jarayon bo‘lib, uning holati, o‘sishi va xavfi tabiiy-antropogen omillar asosida ifodalaniladi. CHo‘llanish tabiiy chegaralangan hudud doirasida va uning majmuasida ko‘plab omillar hamda komplekslar ishtirokida rivojlanadi. Tadqiqot asosan tizimli, ekologik va landshaft yondoshuvi asosida o‘rganiladi.

Ushbu antropogen cho‘llanishni landshaft yondoshuvi usuli orqali katta masshtabda kartalashtirish asosida ko‘rib chiqamiz.



**1-rasm. Orol dengizining 2020 yildagi aerokosmik surati.**

Landshaft yondoshuvi eng samarali usul bo‘lib, uning har bir konturi hududdagi tabiiy sharoitlar holati to‘g‘risida aniq ma’lumot beradi. Ushbu ma’lumotlar

hudud tabiiy muhitini yomonlashuv jarayonini asoslab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Landshaft yondoshuvi asosida u yoki bu darajada cho'llanish xavfi bo'lgan hududni oldindan aytib berish mumkin bo'ladi va qanday turdag'i cho'llanish yuz berishi ko'rsatib beriladi. Binobarin, ushbu ma'lumotlar asosida cho'llanishning rivojlanishini oldini olish mumkin.

Tegishli mashtabli landshaft kartasi cho'llanish kartasini tuzishda asos bo'lishi mumkin. Bunday karta ekotizimdan ho'jalik maqsadida foydalanish va tabiiy muhit to'g'risida ma'lumot beradi. Bu esa u yoki bu konturda cho'llanishga olib keladigan komponentlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Kosmik axborotlar asosida cho'llanish deshifrovkasi shuni ko'rsatadiki, rasm tarkibi orqali ma'lum maydonlarda landshaft bo'laklarini morfologik moslashuvi aniqlanadi.

Janubiy Orolbo'yi hududida cho'llanish oqibatlari tabiat va inson o'rta sidagi munosabatlarning keskinlashuvi kuchayayotgan, qurg'oqchil iqlim, ekologik muvozanat qaltis holda, ba'zi joylarida esa buzilganligi tufayli keskin kuchayib bormoqda. Shu bilan birga ushbu hudud Orol dengizi atrofida bo'lganligi sababli uning qurib borayotganligidan kelib chiqayotgan salbiy oqibatlar ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda katta e'tibor ayni ushbu muammolarni yechimiga qaratilgan, chunki mazkur muammolarni ijobiy hal qilmasdan xududda biologik xilmallikni saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosining noyob turlarining yo'qolib ketishini oldini olish, ekosistemalarning mahsul dorligini oshirish, sug'oriladigan yerlarning hosildorligini optimal meyor largacha yetkazish, cho'llanish jarayonlarini keskin kamaytirish hamda oldini olish mumkin bo'lmay qoldi.


Hozirgi vaqtida Janubiy Orolbo'yi hududida cho'llanish muammosi muhim, o'rganilishi va yechimini kutayotgan masalalardan biri sanaladi. Shu bois, Janubiy Orolbo'yi hududining cho'l va cho'llanish holatini chuqur tahlil qilish, uni barqaror rivojlanishini umumiylar tarzda hamda cho'llanishning o'ziga xos muammolarini uzviy bog'liqlikda o'rganish va shu yo'l bilan ularni hal qilish bo'yicha zaruriy ilmiy-amaliy

takliflar va chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ushbu hududning cho‘llanish kartalarini tuzish dolzARB ahamiyat kasb etadi.

Barcha kartalar singari “Janubiy OrobO‘yi cho‘llanishining hozirgi holati” kartasini tuzish bo‘yicha ishlari mazmuni, bajarish usuli, foydalanish uskunalari bilan farqlanuvchi ko‘pgina jarayonlardan tashkil topgan. GIS texnologiyasida karta tuzish jarayoni quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Tayyorgarlik ishlari. Tasvirlarni qayta ishlash vositasidan, izlanishlarning raqamli ma’lumotlaridan, avtorlik originallaridan, mavjud fond kartalari va hokazolardan dastlabki materiallarni to‘plash. Kartografik va fond materiallarni skanerlab, rastrli tasvirlarni bir xil masshtabga keltirish, so‘ngra ularni kompyuter xotirasiga joylash.
2. Yaratilgan kartaning mavzuli qatlamlarini va ularga tegishli jadvallarni tuzish, ularni tahlil qilish va ma’lumotlar bazasini tuzish.
3. Obektlar tasnifi mavjud jadval (atributlar) va matn ma’lumotlarni EHM xotirasiga kiritish.
4. Shartli belgilar tizimini ishlab chiqish.
5. Kartaning mavzuli qatlamlarini joylashtirish, kartografik tasvirni hosil qilish va ularni tahrir qilish.
6. Kartaning komponovkasini ishlab chiqish va uni nashrga tayyorlash.
7. Kartani nashr qilish[1].

Ushbu bosqichlarning har birida aniq ketma-ketlikda bajariladigan turli operatsiyalar olib boriladi. Odatta, kartalarni tuzish ishlari umumiyl metodi bo‘yicha tayyorgarlik ishidan boshlanadi. Tayyorgarlik bosqichidan, ya’ni kerakli material va ma’lumotlar to‘planib, kompyuter xotirasiga kiritilgandan so‘ng ma’lumotlar bazasini tuzishga o‘tiladi va keyingi bosqich ishlari ham berilgan ketma-ketlikda olib boriladi.



## 2-rasm. Qoraqalpog'iston respublikasi Janubiy Orolbo'yi tuproq tarkibi va o'simlik degradatsiyasi kartasi.

“Janubiy Orolbo‘yi cho‘llanishining hozirgi holati” kartasida cho‘llanish turlari rim raqamlarida ko‘rsatilgan bo‘lib, har bir kontur bir turni yoki kamdan kam hollarda ikki turni ko‘rsatadi. CHo‘llanishning ikki turi faqatgina geo va ekotizimning murakkabligi bilan tushuntirilib qolmasdan, balki antropogen, ya’ni tabiiy zahiralar va tabiiy komplekslarga insonning ta’siri ham tushuniladi. Boshqa tomondan, cho‘llanish turlari bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, bir turning paydo bo‘lishi ikkinchi turning rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Binobarin, suv oqimi yo‘q botiqlarda tuzlarni to‘planishi, o‘simliklar degradatsiyasiga ta’sir qiladi, ya’ni avvaldan mavjud bo‘lgan fitotsenozlar, turli o‘tli yulg‘unlar, tuproqda tuzlar ko‘payishi munosabati bilan bir yillik sho‘r yulg‘unga, so‘ng esa yulg‘un qora barachkaga aylanadi. Shuning uchun ham cho‘llanishni baholashda ikki turga afzallik beriladi va buning zamirida kosmik monitoring asosida cho‘l hududlarining landshaftini operativ kartalashtirish usuli taklif qilingan va ishlab chiqilgan;

arid hududlar va arid zonalarning o‘zlashtirilgan deltalari uchun maqbul qutblanish konsepsiyasi ishlab chiqilgan va u asosida bioxilma-xillikni saqlash uchun yerlardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘ulomova L.X. Geografiya axborot tizimlari va texnologiyalar, o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Universitet, 2010.
2. Mirzaliyev T., Safarov E.Y., Egamberdiyev A., Qoraboyev J.S. Kartashunoslik. – Toshkent.: CHo‘lpon, 2012.
3. Mirzaliyev T.M., Muhiddinov SH.M., Bazarbayev A. Atlasnoye kartografirovaniye v Uzbekistane. – Tashkent., Fan, 1990.
6. <http://www.ziyo.uz>.
7. <http://www.agro.uz>.
8. <http://www.disscat.com>
9. <http://www.Wikipedia.org>

## JANUBIY OROLBO‘YI O‘SIMLIKLARINI KATRALASHTRISHDAGI AYROKOSMIK VA KOSMIK MANITORINGI

assestint, **Haqqulova Adeba.**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti.

### **ANNOTATSIYA**

*Hozirgi paytda Orol bo‘yida yuzaga kelgan ekologik inqiroz, Orol bo‘yi o‘simliklari degradatsiyasini yani avvalgi xolicha keltirish oldimizda turgan eng muxum masalalardan biridir. Buning uchun avvalo ularni o‘rganish, taxlil qilish va kartasini tuzish lozim.*

**Kalit suzlar.** *GIS texnologiyalari, Orol dengizi, qishloq hujalik yerlari, cho‘llanishi, aerokosmik surati.*

### **ANNOTATION**

*The current environmental crisis on the island, the degradation of vegetation on the island is one of the most pressing issues facing us. For this, first of all, it is necessary to study, analyze and map them.*

**Keywords.** *GIS technologies, Orol dengizi, rural land, desertification, aerospace photo.*

**Mavzuning dolzarbliji.** Hozirgi kunda Orol dengizi havzasidagi sug‘oriladigan yerlarining 60% dan ortig‘i sho‘rlangan. Shu bilan birga, sug‘oriladigan qishloq hujalik yerlari maydonlarining sho‘rlanganligi O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatgichdan Qoraqalpog‘iston Respublikasida 21.7 % ga, Xorazm viloyatidan 23.9 % ga ko‘pdir.

Orolbo‘yida sodir bo‘layotgan ekologik va ijtimoiy–iqtisodiy oqibatlarni misol qilib keltirish mumkin. Aslini olganda Orol dengizi va Orolbo‘yi hududini ma’lum miqyosdagi qo‘shaloq, bir–biri bilan bog‘liq ikki ekotizim deb qaralsa, inson bilan

tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va ta’sirni to‘lig‘i bilan makroekologik muammo deb qarash maqsadga muvofiq buladi. Chunki bu hudud tabiatning beqiyos darajada o‘zgarishi, ekologik muvozanatning keskin buzilishi, odamlar yashash sharoitining noqulay holga kelishi, tabiiy boyliklarning qashshoqlanishi va boshqa salbiy xususiyatlari ekologogik muommoning tarkib topganini, endilikda shakllanish bosqichlarini o‘tayotganini tasdiqlamoqda.

- O‘simpliklar kartalarini tuzish metodlari aerokosmik materiallarni o‘rni va ahamiyatini yoritib berish;
- GIS texnologiyalarining o‘simpliklar degradatsiyasini kartaga olishdagi ahamiyatini o‘rganish;

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi**. Ekologlar, yerni masofadan zondlash bo‘yicha mutaxassislar va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida uchraydi. Jumladan, xorijiy olimlardan A.N. Zolotokrilin va boshqalar beqarorlashgan hamda cho‘llashayotgan ekotizimlarni o‘rganishga muhim hissa qo‘shtan. Ekotizimlarni kartalashtirish masalalari bilan Y.F.Knijnikov, I.K.Lurye, V.S.Stolbova, xususan, Orolbo‘yi hududlari uchun YE.A.Vostokova, V.I.Kravsova, G.S.Kust, A.V.Ptichnikov va boshqalar shug‘ullangan.

### **Tadqiqot Yangiligi.**

Janubiy Orolbo‘yi hududida o‘simpliklarning shakllanishi, flora resurslaridan oqilona foydalanish, o‘simplik degradatsiyalanish jarayonining kuchayib borishi, o‘simpliklarni rayonlashtirish va o‘simpliklar tang hududlarni optimallashtirishning geografik asoslari bo‘yicha olib borilgan ushbu tadqiqotlarning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Janubiy Orolbo‘yi hududida o‘simpliklarning degradatsiyalanishi tahlil qilinib, ular bo‘yicha rayonlashtirish ishlari amalga oshirildi;
- o‘simplik majmularini optimallashtirishning geografik asoslari ishlab chiqilib, amaliy tavsiyalar berildi.

### **Tadqiqotning Asosiy mazmuni.**

Dengizning qurigan qismida Orolqum cho‘li shakllanib, uning maydoni hozirgi kunda 4,5 million gektardan oshib ketdi. Har yili Orol dengizining qurigan tubidan atmosferaga 75 million tonnadan 100 million tonnagacha har hil chang va tuzlar ko‘tariladi. Vozrojdeniye yarim oroli hududidan atmosferaga ammiak va serovodorod konsentratsiyalarining ko‘tarilishi natijasida Orolbo‘yi hududida organik birikmalarning okislanishi va tarqalishi juda xavflidir. Bunga bog‘liq holda o‘simlik va hayvonot dunyosi turlarining soni kamayib, Janubiy Orolbo‘yining ekologik va sanitar holati yomonlashib, cho‘llashish jarayoni jadallahib, ekin maydonlarining ishdan chiqishi va har xil yuqumli kasalliklar ko‘paymoqda. Amudaryo hamda Sirdaryoning quyi va o‘rta oqimlarida yuqori darajada minerallashgan kollektor drenaj suvlarining tashlanishi oqibatida daryo suvi kuchli darajada minerallashib, sanitar holati yomonlashmoqda. Hududda suv resurslarining yetishmasligi natijasida Orol dengizi bilan bir qatorda Amudaryo deltasidagi ko‘plab ko‘llar xam qurib bormoqda. Dengizning qurigan qismida va Amudaryo deltasida bunga bog‘liq xolda cho‘llanish jarayoni boshlangan. Bu yerdagi gidromorfli, yarimgidromorfli tuproqlar avtomorf holatigi o‘zgarib ketgan. Tuproq qoplaming o‘zgarishi natijasida avvalgi gidromorfli va yarimgidromorfli o‘simliklar kseromorfli va galomorfli o‘simliklarga almashgan. Tuproq tarkibi sulfatli va xlorid-sulfatli tipdagi sho‘rlanishdan sulfatli-xloridli va xloridliga o‘zgarib tuzlarning tarqalishi botqoqli tuproqlarda 0,23-0,45% gacha o‘tloqli tupoqlarda 0,23-0,53% dan 0,57-0,82% gacha ekanligi aniqlandi. Bu jarayon gidromorf tuproqlarda ikkilamchi sho‘rlanish bo‘lishiga sharoit yaratadi. Dengizning qurigan qismidan havoga ko‘tarilayotgan chang-to‘zonlar tarkibida har-xil pestitsidlarning borligi juda katta xavf tug‘diradi.

Geoekologik kartalarni yaratishda avvalambor hududning aerokosmik suratini olib joyning tabiiy sharoiti va landshaftlari bilan yaqindan tanishish zarur bo‘ladi.

Kosmosdan olingan surat asosida hududda bo‘layotgan o‘zgarishlarni tahlil qilib, bir-biri bilan taqqoslashimiz mumkin. Geografik axborot tizimi nati-jalari qanday dara-jada sifatli bo‘lishi aynan mutaxassisni bilim mahoratiga bevosita bog‘liqdir.

Shu bilan birga aerokosmik ma'lumotlarni tahlil qilishni va Geografik axborot tizimini natijalari tez yoki sifatli bo'lishi aynan qanday usullarni qo'llashiga bog'liq bo'ladi.

Geografik axborot tizimida axborot yoki ma'lumot toplash jarayoni o'z ichiga to ma'lumot toplashdan tortib to bu ma'lumotlar ma'lum bir jadvallar tizimiga keltirgunga qadar davom etadi. YA'ni toplangan ma'lumotlar ma'lum bir talablarga javob beradigan bo'lishi zarur. So'ngra integratsiya jarayoniga ya'ni, ikkinchi darajali ma'lumotlar ustida ishslash, ularni tahlil qilish, ularni manipulyatsiya qilishga o'tiladi. Ana shu jarayonni qanday tartibda amalga oshirish uchinchi darajali ma'lumotlarni sifatiga ta'sir qiladi. Uchinchi darajali ma'lumotlar bu-realizatsiya jarayoni ya'ni, uchinchi darajali ma'lumotlar bazasini ma'lum bir maqsadlarda ishlatishdir.


Qoraqlapog'istonning geoekologik kartasini tuzishda Geografik axborot tizimi dasturlaridan Arcview 9.2 dasturi aerokosmik ma'lumotlar bilan ishslash uchun mo'ljallangan bo'lib, unda aerokosmik suratlar bilan ishslash vositalari mavjud. Arcview 9.2 dasturi aerokosmik suratlarni rastr ko'rinishidan vektor ko'rinishiga o'tkazish mumkin.

Orolbo'yida cho'llanish alomatlarini deshifrovka qilishning asosini yer yuzi qatlamlari, relef shakllari, o'simlik qoplami tashkil qiladi. Foto tasvir rangi bo'yicha ajraluvchi ekotizimni suv bilan ta'minlash darajasi eng oson belgi hisoblanadi. Landshaft komplekslarini foto-fiziologik tahlil qilish asosida, uning turli tiniqlik spektori orqali tabiiy jarayonlar va hodisalarining dinamikasini aniqlash mumkin. Kosmik axborotlar asosida cho'llanish deshifrovkasi shuni ko'rsatadiki, rasm tarkibi orqali ma'lum maydonlarda landshaft bo'laklarini morfologik moslashuvi aniqlanadi.

Odatda Orolbo'yi komosuratlarida aniq bo'lingan uch yoki to'rt rang ajratiladi: bu juda och tusli ranglar, shu bilan birga ular tekis va turli maydonlarda areallar bo'yicha tarqagan bo'lib, oddiy sho'rxoklarga tegishli (mayin va qobiqli). Och tusdag'i ranglar esa odatda yalang'och cho'llarga tegishli.

## Tadqiqot natijalari.

Orolbo‘yida cho‘llanish jarayonlari rivojlanishining jadallahuvি munosabati bilan bir qator mavzuli geografik kartalarni tuzish muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bunda cho‘llanishning hozirgi holati, paydo bo‘lish omillari, rivojlanish havfi hamda cho‘llanishga qarshi kurashish chora-tadbirlari va boshqalar aks ettiriladi. Kartalardan foydalanish – hududdagi u yoki bu jarayonlarni paydo bo‘lishi haqida sifatlari va ko‘plab axborotlar olishning oqilona va samarali usuli.



**1-pacm.Orolbo‘yida cho‘llanish jarayonlari komosuratlarida tasvirlanish usullari.**

Cho‘llanish murakkab, ko‘pgina omillarni qamrab olgan tabiiy-geografik jarayon bo‘lib, uning holati, o‘sishi va xavfi tabiiy-antropogen omillar asosida ifodalaniladi. Cho‘llanish tabiiy chegaralangan hudud doirasida va uning majmuasida ko‘plab omillar hamda komplekslar ishtirokida rivojlanadi. Tadqiqot asosan tizimli, ekologik va landshaft yondoshuvi asosida o‘rganiladi.

Yuqoridagilardan ma'lumki, GIS real olam haqidagi ma'lumotlarni u yoki bu obektlarning geografik qatlamlarida bajarib, mavzuli qatlamlar to'plami shaklida saqlaydi

Hozirgi kunda dunyoning ko'plab rovojlangan mamlakatlarida GIS texnologiyasidan ilmiy tatqiqotlarda keng faydalaniylmoqda. Janubiy Orol bo'yli o'simliklari degradatsiyasini o'rganish va kartasini tuzish o'sha zamonaviy GIS texnologiyalari yordamida amalga oshirish ayni muddao. Ishning maqsad doirasi ham, shu jihatlarni qamrab oladi.

Kartalarni tuzish bo'yicha ishlar mazmuni, bajarish usuli, foydalanish uskunasi bilan farqlanuvchi ko'p jarayonlardan tashkil topgan. Turli jarayonni bajarishda mos ravishda turli malakadagi mutaxassislar birgalikda hamfikrlikda bo'lishadi.

#### Karta tuzishning asosiy bosqichlari quyidagilar:

- tahririy-tayyorgarlik ishlari;
- tuzish
- Jihozlash va nashr

Kartalarni nashrga tayyorlash va ularni nashr qilish jarayonida ishlarni boshqarishni kartaning texnik redaktori, injener kartografi-nashir amalga oshiradi. Aynan biz tuzgan kartaning kartografik ta'minoti va bir qancha ma'lumotlar asnosida kartaning mazmunidan boshlab nashrga tayyorlash ishlarigacha bosqichma-bosqich olib borildi. Kartaning yaratish texnologiyasi GAT (geografik axborot tizimlari) ning Mapinfo, ArGis hamda Photoshop dasturlari asosida tuzishga erishildi.

#### Xulosa.

ArgGis 10.2 dasturida yana bir asosiy bosqichdakarta komponovka (jihozlash) ishlari olib borildi. Ushbu jarayon kartografik jihatdan ajratilgan rayonlarga rang

tanlash, kartaning legendasini tuzish, karta ramkasini tanlash, uning nomi va mashtabini joylashtirishdan iborat.

## ADABIOTLAR

1. Berlyant A.M. KartografiY. – M.: Aspekt-Press, 2002.
2. Zaruskaya I.P., Krasilnikova N.V. Proyektirovaniye i sostavleniye kart. Karti prirodi. – M.: MGU, 1989.
3. Mirzaliyev T., Safarov E.Y., Egamberdiyev A., Qoraboyev J.S. Kartashunoslik. – Toshkent.: “CHo‘lpon”, 2012.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasini 2012 yildagi ma’lumotlari.
5. Kartografirovaniye prirodnoy sredi i yestestvennix resursov. - M.,
6. Karta prirodi v zarubejnix spravochnix atlasax (gosudarstv i regionov) //Trudi SNIIGiK, vip. 125. - M., 1958.
7. Qurbonov E., Qo‘ziyev R., Bo‘riyev X., G‘afurova L. "O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari va ulardan samarali foydalanishning ilmiy, huquqiy, meyoriy va amaliy asoslari. Toshkent-2001.
8. G‘afurova L. Maxsudov X., Namozov X. O‘zbekiston tuproqlaria ulardan samarali foydalanish. T. 2003.

## PYTHON KUTUBXONALARI

**Jo‘rayev Sherali Umarjonovich**

Namangan davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

*Bugungi dunyoda biz real muammolarni samarali hal qila oladigan dasturlash tilini tanlashimiz juda muhim. Python shunday dasturlash tillaridan biridir. Python taklif qiladigan kutubxonalarining ko‘pligi uning mashhurligining sababidir. Maqolada Python kutubxonalari va ulardan bugungi kunda foydalanish haqida ma’lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Python, Pandas, NumPy, Keras, TensorFlow, Scikit Learn, Eli5, SciPy, PyTorch, LightGBM, Theano .

### ABSTRACT

*In today’s world, it is very important that we choose a programming language that can effectively solve real problems. Python is one such programming language. The abundance of libraries that Python offers is the reason for its popularity. The article provides information about Python libraries and their use today.*

**Keywords:** Python, Pandas, NumPy, Keras, TensorFlow, Scikit Learn, Eli5, SciPy, PyTorch, LightGBM, Theano .

Texnologiya hayotimizning barcha jabhalarida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi dunyoda biz real muammolarni samarali hal qila oladigan dasturlash tilini tanlashimiz juda muhim. Python shunday dasturlash tillaridan biridir. So‘nggi yillarda Pythonning mashhurligi, jumladan, dasturiy ta’minot muhandisligi, mashinalarni o‘rganish va ma’lumotlar fanlari kabi ko‘plab sohalarda qo‘llanilishi tufayli keskin oshdi. Python taklif qiladigan kutubxonalarining ko‘pligi uning mashhurligining sababidir. Bugungi kunda ko‘plab yangi iste’dodlar dasturlash

tilining asosiy tanlovi sifatida Python-ga jalg qilinmoqda va shuning uchun biz ushbu maqola orqali o‘quvchilarimizga eng mashhur Python kutubxonalari va ulardan bugungi kunda foydalanish haqida ma’lumot bermoqchimiz

Kutubxona - bu sizning dastur kodingiz funksiyalarni noldan yozmasdan muayyan vazifalarni bajarish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan yordamchi usullar, sinflar va modullar to‘plamidir. Kutubxonalar ko‘pincha tor doiraga ega bo‘lgani uchun (masalan, Strings, Input / Output va Sockets), ularning API’lari (Ilova dasturlash interfeyslari) kichikroq va kamroq bog‘liqlikni talab qiladi. Bu sinf ta’riflari ro‘yxatidan boshqa narsa emas. Endi har bir insonni o‘ylantirayotgan savol nima uchun bizga kutubxonalar kerak? Buning tushuntirishi oddiy: kodni qayta ishlatish mumkinligi. Kodni qayta ishlatish imkoniyati boshqa odamlar tomonidan ishlab chiqarilgan yoki yozib olingan kodni o‘z maqsadimiz uchun ishlatishdan boshqa narsani anglatmaydi. Masalan, ba’zi kutubxonalarda findLastIndex(char) funksiyasi mavjud bo‘lib, u satrdagi belgining oxirgi indeksini qaytaradi. Biz darhol kutubxonaning findLastIndex(charToFind) funksiyasiga qo‘ng‘iroq qilishimiz va parametr sifatida o‘rnini topishimiz kerak bo‘lgan belgilarni taqdim etishimiz mumkin. Dasturchi hayotida kutubxonalar farishta rolini o‘ynaydi, chunki ular dasturchilarga g‘ildirakni qayta-qayta ixtiro qilishlariga to‘sqinlik qiladi va aslida haqiqiy muammoga e’tibor qaratadi.

Python kutubxonalari nima?

Keling , eng mashhur Python kutubxonalariga kirishdan oldin Python dasturlash tilini qisqacha ko‘rib chiqishdan boshlaylik . Ehtimol, siz "Python" haqida eshitgan bo‘lishingiz oldindan aytib o‘tilgan. Gvido Van Rossumning ixtirosi bo‘lgan va 1980-yillarga borib taqalgan Python o‘yinni o‘zgartiruvchi ekanligini isbotladi. Bu bugungi kunda eng ko‘p qo‘llaniladigan kodlash tillaridan biri bo‘lib, u keng ko‘lamli ilovalar uchun qo‘llaniladi. Python-ning mashhurligi bir qator omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin:

Python juda ko‘p kutubxonalar bilan birga keladi.

Python oson va soddaligi tufayli boshlang‘ich dasturlash tilidir.

Python o‘z ishlab chiquvchilari ishlab chiqish, joylashtirish va texnik xizmat ko‘rsatishning barcha jihatlarida samaraliroq bo‘lishini xohlaydi.

Python-ning ulkan mashhurligining yana bir sababi uning portativligidir.

C, Java va C++ bilan solishtirganda, Python dasturlash sintaksisini o‘rganish oson va yuqori darajadagi abstraksiyaga ega.

Yuqoridagi birinchi nuqtada aytib o‘tilganidek, Python-ning mashhurligi uning xilma-xil va ishlatish uchun qulay kutubxonalar bilan bog‘liq. Python kutubxonalar noldan boshlamasdan kod yozish imkonini beruvchi foydali funksiyalar to‘plamidir. 137 000 dan ortiq kutubxonalar bilan Python turli sohalarda ilovalar va modellarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin, masalan, mashinani o‘rganish, ma’lumotlar fanlari, ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish, tasvir va ma’lumotlarni manipulyatsiya qilish va boshqalar.

Python-dagi eng yaxshi kutubxonalar ro‘yxati

Endi biz kutubxonalar nima ekanligini va Python nima ekanligini bir oz tushunganimizdan so‘ng, keling, Python-da eng ko‘p ishlatiladigan kutubxonalar :

Pandas - bu BSD (Berkeley Software Distribution) litsenziyalangan ochiq manbali kutubxona. Ushbu mashhur kutubxona ma’lumotlar fanida keng qo‘llaniladi. Ular birinchi navbatda ma’lumotlarni tahlil qilish, manipulyatsiya qilish, tozalash va hokazolar uchun ishlatiladi. Pandalar R kabi boshqa tilga o‘tishga hojat qoldirmasdan oddiy ma’lumotlarni modellashtirish va ma’lumotlarni tahlil qilish operatsiyalarini amalga oshirishga imkon beradi. Odatda, Python kutubxonalar quyidagi ma’lumotlar turlaridan foydalanadi:

Ma’lumotlar to‘plamidagi ma’lumotlar.

Tartiblangan va tartiblanmagan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan vaqt seriyasi.

Matritsa ma’lumotlarining satrlari va ustunlari etiketlanadi.

Belgilanmagan ma’lumotlar

Har qanday boshqa turdagи statistik ma’lumotlar

Pandalar keng ko‘lamli vazifalarni bajarishi mumkin, jumladan:

Ma’lumotlar ramkasi Pandas yordamida kesilishi mumkin.

Ma'lumotlar ramkasini birlashtirish va birlashtirish Pandas yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Ikkita ma'lumot ramkasi ustunlari Pandas yordamida birlashtirilishi mumkin.

Ma'lumotlar ramkasida indeks qiymatlari Pandas yordamida o'zgartirilishi mumkin.

Bir ustunda sarlavhalar Pandas yordamida o'zgartirilishi mumkin.

Ma'lumotlarni turli shakllarga aylantirish Pandas va boshqa ko'p narsalar yordamida ham amalga oshirilishi mumkin.

NumPy ilmiy hisoblashga qaratilgan Python-ning eng keng tarqalgan ochiq manba kutubxonalaridan biridir. U tezkor hisoblash uchun o'rnatilgan matematik funktsiyalarga ega va katta matritsalar va ko'p o'lchovli ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlaydi. "Raqamlı Python" "NumPy" atamasi bilan belgilanadi. U chiziqli algebrada, umumiy ma'lumotlar uchun ko'p o'lchovli konteyner sifatida va tasodifiy sonlar generatori sifatida ishlatalishi mumkin. NumPy-dagi ba'zi muhim funksiyalar arcsin(), arccos(), tan(), radians() va boshqalardir. NumPy massivi Python obyekti bo'lib, qatorlar va ustunlar bilan N o'lchovli massivni belgilaydi. Pythonda NumPy Array ro'yxatlardan ko'ra afzalroqdir, chunki u kamroq xotirani egallaydi va ulardan foydalanish tezroq va qulayroqdir.

Xususiyatlari :

Interaktiv: Numpy juda interaktiv va foydalanuvchilarga qulay kutubxona.

Matematika: NumPy qiyin matematik tenglamalarni amalga oshirishni soddalashtiradi.

Intuitiv: Bu kodlash va mavzularni tushunishni oson qiladi.

Ko'p o'zaro ta'sir: Unda juda ko'p o'zaro ta'sir mavjud, chunki u keng qo'llaniladi, shuning uchun juda ko'p ochiq manba hissasi mavjud.

NumPy interfeysi tasvirlar, tovush to'lqinlari va boshqa ikkilik xom oqimlarni vizualizatsiya uchun haqiqiy qiymatlarning N o'lchovli massivi sifatida ko'rsatish uchun ishlatalishi mumkin. Mashinani o'rganish uchun ushbu kutubxonani amalga oshirish uchun to'liq stek ishlab chiquvchilari uchun numpy bilim talab qilinadi.

Keras - bu Python-ga asoslangan ochiq manbali neyron tarmoqlar kutubxonasi bo‘lib, u bizga chuqur neyron tarmoqlar bilan tezda tajriba o‘tkazish imkonini beradi. Chuqur o‘rganish keng tarqalgan bo‘lib, Keras ajoyib variant sifatida paydo bo‘ladi, chunki yaratuvchilarga ko‘ra, bu mashinalar uchun emas, balki odamlar uchun mo‘ljallangan API (Illova dasturlash interfeysi). Keras sanoat va tadqiqot hamjamiyatida TensorFlow yoki Theanoga qaraganda yuqoriroq qabul qilish darajasiga ega. Kerasni o‘rnatishdan oldin TensorFlow backend dvigatelini o‘rnatish tavsiya etiladi.

Xususiyatlari :

U CPU (Markaziy protsessor) va GPU (Grafik ishlov berish birligi) da muammosiz ishlaydi.

Keras deyarli barcha neyron tarmoq modellarini qo‘llab-quvvatlaydi, shu jumladan to‘liq ulangan, konvolyutsion, birlashma, takroriy, o‘rnatish va hokazo. Ushbu modellarni yanada murakkab modellarni yaratish uchun birlashtirish ham mumkin.

Kerasning modulli dizayni uni juda ifodali, moslashuvchan qiladi va ilg‘or tadqiqotlarga mos keladi.

Keras - bu Python-ga asoslangan ramka bo‘lib, u turli modellar va loyihalarni disk raskadrovska qilish va o‘rganishni osonlashtiradi.

Keras-ga asoslangan xususiyatlar allaqachon turli kompaniyalarda, masalan, Netflix, Uber, Yelp, Instacart, Zocdoc, Square va boshqa bir qator kompaniyalarda qo‘llanilmoqda. Bu, ayniqsa, o‘z mahsulotlarini quvvatlantirish uchun chuqur o‘rganishdan foydalanadigan firmalar orasida mashhurdir. Keras qatlamlar, maqsadlar, faollashtirish funktsiyalari, optimallashtiruvchilar va rasm va matn ma’lumotlari bilan ishslash uchun bir qator boshqa vositalar kabi standart neyron tarmog‘ini qurish elementlarining ko‘plab ilovalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u MNIST, VGG, Inception, SqueezeNet, ResNet va boshqalar kabi bir nechta oldindan qayta ishlangan ma’lumotlar to‘plamlari va oldindan tayyorlangan modellarni o‘z ichiga oladi.

TensorFlow - bu ochiq manba bo‘lgan yuqori samarali raqamli hisoblash kutubxonasi. Shuningdek, u chuqur o‘rganish algoritmlari va mashinani o‘rganish algoritmlarida qo‘llaniladi. U Google AI tashkilotidagi Google Brain jamoasi tadqiqotchilarini tomonidan yaratilgan va hozirda matematik, fizika va mashinani o‘rganish bo‘yicha tadqiqotchilar tomonidan murakkab matematik hisob-kitoblar uchun keng qo‘llaniladi. TensorFlow tez ishslash uchun mo‘ljallangan va u XLA (XLA yoki Tezlashtirilgan chiziqli algebra chiziqli algebra uchun domenga xos kompilyator bo‘lib, TensorFlow modellarini hech qanday manba kodini o‘zgartirmasdan tezlashtirishi mumkin.) tezkor chiziqli algebra hisoblarini amalga oshiradi.

Xususiyatlari :

**Responsive Construct:** Biz TensorFlow yordamida grafikning har bir qismini osongina tasavvur qilishimiz mumkin, bu Numpy yoki SciKit bilan mumkin emas.

**Moslashuvchan:** Tensorflow-ning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u Machine Learning modellarini bilan bog‘liq ishslashda moslashuvchan, ya’ni u modullilikka ega va uning qismlarini alohida qilish imkonini beradi.

TensorFlow-da mashinani o‘rganish modellarini o‘rgatish juda oson: Mashina o‘rganish modellarini taqsimlangan hisoblash uchun CPU va GPUda TensorFlow yordamida osongina o‘rgatish mumkin.

**Parallel Neyron Tarmoqni O‘qitish:** TensorFlow bir vaqtning o‘zida ko‘plab neyron tarmoqlar va GPULarni o‘qitishga imkon beradi.

**Ochiq manba va katta hamjamiyat:** Agar u Google tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsa, shubhasiz, barqarorlikni doimiy ravishda yaxshilash ustida ishlaydigan dasturiy ta’midot bo‘yicha mutaxassislarning katta guruhi mavjud. Ushbu mashinani o‘rganish kutubxonasining eng yoqimli tomoni shundaki, u ochiq manba hisoblanadi, ya’ni Internetga kirish imkoniga ega bo‘lgan har bir kishi undan foydalanishi mumkin.

TensorFlow muntazam ravishda, lekin Google Voice Search va Google Photos kabi xizmatlar orqali beixtiyor ishlatiladi. TensorFlow kutubxonalari butunlay C va C++ tillarida ishlab chiqilgan. Biroq, u murakkab Python old tomoniga ega. Sizning Python kodingiz kompilyatsiya qilinadi va C va C++ tillarida yozilgan TensorFlow

taqsimlangan ijro mexanizmida ishlaydi. TensorFlow deyarli cheksiz miqdordagi ilovalarga ega, bu uning eng jozibali xususiyatlaridan biridir.

Scikit Learn - bu Python muhitida ishlaydigan mashinani o'rganish algoritmlari uchun ochiq manbali kutubxona. U nazorat ostida va nazoratsiz o'rganish algoritmlari bilan ishlatilishi mumkin. Kutubxonada mashhur algoritmlar, shuningdek, NumPy, Matplotlib va SciPy paketlari mavjud. Scikit eng mashhur Spotify musiqa takliflari uchun foydalanish ekanligini bilib oladi. Keling, Scikit Learn-ning ba'zi asosiy xususiyatlarga chuqurroq kirib boramiz:

Cross-validation: Scikit Learn yordamida ko'rinnmaydigan ma'lumotlar bo'yicha nazorat qilinadigan modellarning to'g'riligini tekshirishning bir necha usullari mavjud, masalan, `train_test_split` usuli, `cross_val_score` va boshqalar .

Nazoratsiz o'qitish usullari: Klasterlash, omil tahlili, asosiy komponentlar tahlili va nazoratsiz neyron tarmoqlardan tortib, nazoratsiz o'rganish algoritmlarining keng doirasi mavjud.

Xususiyatlarni ajratib olish: Rasmlar va matnlardan xususiyatlarni ajratib olish foydali vositadir (masalan, so'zlar sumkasi)

Scikit Learn ko'p sonli algoritmlarni o'z ichiga oladi va o'lchamlarni kamaytirish, tasniflash, regressiya, klasterlash va model tanlash kabi umumiy mashinani o'rganish va ma'lumotlarni qidirish vazifalarini bajarish uchun ishlatilishi mumkin.

Mashinani o'rganish modelini bashorat qilish natijalari ko'pincha noto'g'ri bo'ladi va Eli5 Python mashina o'rganish kutubxonasi noto'g'ri bashorat qilishning ushbu qiyinligini hal qilishga yordam beradi. Bu mashinani o'rganishning barcha modellarini vizuallashtirish va disk raskadrova qilish, shuningdek, algoritmning barcha ish jarayonlarini kuzatish kombinatsiyasi. Eli5 tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ba'zi kutubxonalarga XGBoost, Lightning, scikit-learn va sklearn crfsuite kiradi.

Keling, Eli5-ning ba'zi ilovalari haqida gapiraylik:

ELI5 - bu Machine Learning tasniflagichlarini tekshirish va ularning bashoratlarini tushuntirish uchun ishlatiladigan python to'plami. Sklearn regressorlari

va tasniflagichlari, XGBoost, CatBoost, Keras va boshqalar kabi algoritmlarni tuzatish uchun keng qo'llaniladi.

Boshqa Python paketlari bilan bog'liqliklar mavjud bo'lganda, Eli5 juda muhimdir.

Eli5, shuningdek, eski dasturiy ta'minot va innovatsion yondashuvlar amalga oshirilayotgan turli sohalarda qo'llaniladi.

Scipy - bu ilmiy hisoblash, ma'lumotlarni qayta ishlash va yuqori samarali hisoblash uchun ishlataladigan bepul, ochiq manba Python kutubxonasi. Kutubxonada tezkor hisoblash uchun juda ko'p foydalanuvchilarga qulay tartiblar mavjud. Paket NumPy kengaytmasiga asoslangan bo'lib, u ma'lumotlarni qayta ishlash va vizualizatsiya qilish hamda yuqori darajadagi buyruqlarni bajarish imkonini beradi. Scipy NumPy bilan bir qatorda matematik hisob-kitoblar uchun ishlataladi. NumPy massiv ma'lumotlarini saralash va indekslash imkonini beradi, SciPy esa raqamli kodni saqlaydi. Klaster, konstantalar, fftpack, integratsiya, interpolyatsiya, io, linalg, ndimage, odr, optimallashtirish, signal, siyrak, fazoviy, maxsus va statistikalar SciPy-da mavjud bo'lgan ko'plab kichik paketlardan faqat bir nechta. "From scipy import subpackage-name" ularni SciPy'dan import qilish uchun ishlatalishi mumkin. NumPy, SciPy kutubxonasi, Matplotlib, IPython, Sympy va Pandas, ammo,

Xususiyatlari :

SciPy-ning asosiy xususiyati shundaki, u NumPy-da yozilgan va uning massivi NumPy-dan keng foydalanadi.

SciPy optimallashtirish, raqamli integratsiya va boshqalar kabi barcha samarali raqamli algoritmlarni ta'minlash uchun o'zining maxsus submodullaridan foydalanadi.

SciPy submodullaridagi barcha funksiyalar keng hujjatlashtirilgan. SciPy-ning asosiy ma'lumotlar strukturasi NumPy massivlari bo'lib, u turli xil mashhur ilmiy dasturlash ilovalari uchun modullarni o'z ichiga oladi. SciPy chiziqli algebra, integratsiya (hisob), oddiy differensial tenglamalarni echish va signallarni qayta ishlash kabi vazifalarni osonlik bilan hal qiladi.

PyTorch - bu 2017 yilda Facebook tomonidan birinchi marta taqdim etilgan Python kutubxonasi bo‘lib, u quyidagi ikkita yuqori darajadagi imkoniyatlarni birlashtiradi:

Katta GPU tezlashishi bilan tensor hisoblash (NumPy ga o‘xhash)

Moslashuvchanlik va tezlikni taklif qiluvchi chuqur neyron tarmoqlarga asoslangan platformalar.

Xususiyatlari :

Python va uning kutubxonalari PyTorch tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Facebook’ning Deep Learning talablari ushbu texnologiyadan foydalanishni taqozo etdi.

U foydalanish qulayligi va tushunishni yaxshilaydigan API-ni taqdim etadi.

Grafiklar dinamik ravishda o‘rnatalishi va PyTorch-da kod bajarilishining istalgan nuqtasida dinamik ravishda hisoblanishi mumkin.

PyTorch-da kodlash oddiy va ishlov berish tezdir.

CUDA (CUDA - parallel hisoblash platformasi va amaliy dasturlash interfeysi bo‘lib, u dasturiy ta’midotga umumiy maqsadlarda ishlov berish uchun grafik ishlov berish blokining ma’lum turlaridan foydalanish imkonini beradi - GPU'larda umumiy maqsadli hisoblash deb ataladigan yondashuv) qo‘llab-quvvatlanganligi sababli, uni GPU mashinalarida ishga tushirish mumkin.

PyTorch asosan tabiiy tillarni qayta ishlash dasturlari uchun ishlataladi. U asosan Facebook’ning sun’iy intellekt tadqiqot laboratoriysi tomonidan ishlab chiqilgan va Uber’ning “Pyro” probabilistik dasturlash dasturi unga asoslangan. PyTorch turli sohalarda TensorFlow-dan ustun turadi va yaqinda u o‘zining xususiyatlari tufayli katta e’tibor qozondi.

Gradient Boosting - bu mashinani o‘rganishning mashhur to‘plami bo‘lib, ishlab chiquvchilarga qarorlar daraxtlari kabi oddiy modellarni qayta belgilash orqali yangi algoritmlarni ishlab chiqishda yordam beradi. Natijada, ushbu Gradient Boosting usulini tez va samarali amalga oshirish uchun ishlatalishi mumkin bo‘lgan maxsus kutubxonalar mavjud. LightGBM, XGBoost va CatBoost bu kutubxonalar. Ushbu

kutubxonalarning barchasi bir xil muammoni hal qilishga yordam beradigan raqobatchilardir va deyarli bir xil tarzda ishlatalishi mumkin.

Xususiyatlari :

Yuqori ishlab chiqarish samaradorligi juda tez hisoblash bilan ta'minlanadi.

Bu foydalanuvchilar uchun qulay, chunki u intuitivdir.

Ko'pgina boshqa chuqur o'rghanish kutubxonalarini o'qitish bunga qaraganda ko'proq vaqt talab etadi.

NaN qiymatlari va boshqa kanonik qiymatlardan foydalanganda xatoliklar bo'lmaydi.

Ushbu kutubxonalar yuqori darajada kengaytiriladigan, samarali va tez gradientni oshirish dasturlarini taklif qiladi, bu ularni mashinasozlik muhandislari orasida mashhur qiladi.

Theano, boshqa matematik operatsiyalar kutubxonalari kabi, foydalanuvchilarga matematik ifodalarni aniqlash, optimallashtirish va baholash imkonini beradi. Samarali matematik ishlov berish uchun u massiv ko'p o'lchovli massivlardan foydalanadi. Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishslashda standart C-ga asoslangan kodlar sekinlashadi. Boshqa tomondan, Theano o'zining boy kutubxonasi tufayli kodni tezda amalga oshirish imkonini beradi. Beqaror ifodalarni tanib olish va hisoblash mumkin, bu kutubxonani NumPy orqali foydaliroq qiladi.

Xususiyatlari :

NumPy integratsiyasi: Theano NumPy massivlaridan butunlay Theano kompilyatsiya qilingan funktsiyalarda foydalanishi mumkin.

Shaffof grafik protsessordan foydalanish: u ma'lumot talab qiladigan operatsiyalarni protsessorga qaraganda ancha tezroq bajarish uchun ishlatalishi mumkin.


text message campaigns could be classified as mass media since they are a one-to-many communication. But due to the opt-in nature of these campaigns, the mass that they reach will be limited.

That being said, there is no doubt that mass media communications delivered via mobile devices, particularly through mobile apps and push notifications (alert messages that pop up on a mobile device screen), will become a primary delivery system of the future.

Similarly, email is often a one-to-many communication, particularly for communications such as email marketing and newsletters. Like text messaging and cell phone calls, a person must share an email address (opt-in) in order to receive messages.

Broadcasting to the masses without permission violates the [Federal Trade Commission's CAN-SPAM Act](#). As with mobile text messages, email can be a mass media communication but will be limited.

### **Impact of Social Media**

Unlike mobile and email, messages and photos posted on social media are available for public consumption. Social media is a form of mass media due to its one-to-many communication flow and public access.

The challenge with social media is that it really isn't media in the classic sense. Yet, as noted in a *USA Today* article, [social media is often the first on the scene when incidents occur](#). This further democratizes mass media and expands the sources and resources for traditional media in a way that, to date, has not been possible.

However, the question of legitimacy and bias exists since sources are regular people who may not be committed to the principles of fair and truthful reporting.

With everyone becoming a news source and media channel on the social networks, the fragmentation of mass media has taken yet another leap, further complicating communications.

### **Problems of Mass Communication**

*"Is anyone listening?"*

This is one of the biggest questions that media faces. It was much easier in years past to reach more people with mass communication due to limited channels.

However, as the number of media outlets continued to expand, it became much more difficult.

Too many channels fragmented audiences, making it necessary to broadcast the same message on many more channels than ever before, thereby increasing costs. The invention of the remote control and the dawn of the Internet have just escalated the situation to extreme proportions.

Worsening the situation is the resulting overwhelm that people feel when given too many choices (as Bruce Springsteen so eloquently explained in the song, *57 Channels and Nothing On*). They often completely tune out.

Getting messages, even critical ones, through the clutter is one of the biggest problems of mass communication today.

In an ironic twist, the pendulum may swing back to earlier times of fewer media. In an article on *BGR.com*, it was reported that [19.3 percent of Americans now rely on free over-the-air \(non-cable\) television programming](#) which has limited television channels available. This is a trend that should be watched for all mass media types.

*This article is accurate and true to the best of the author's knowledge. Content is for informational or entertainment purposes only and does not substitute for personal counsel or professional advice in business, financial, legal, or technical matters.*

### **CONCLUSION:**

It can be rightly concluded that the mass media influence people in many ways. The mass media can also be used to drive positive changes in society and has also shown the way for it in many instances. It should not be used as an agent of agenda building and manipulation.

### **REFERENCES**

[1] <https://bgr.com/business/cord-cutting-news-60-percent-cancel-cable/>

[2] John Dewey, Democracy and Education,(Macmillan,1916).

[3][This article](#) defines the term, explains the types and their influences, and provides several examples.

[4]In [this article](#), readers can find the definition of the term, types, and different examples.

[5][This article](#) covers the role and influence of mass media.

## ISLOMDA GENDER TENGLIK VA AYOLLAR HUQUQI MASALALARI

**Pardayeva Dilshoda**

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

“Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati”

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada islom dinida ayollarning huquqlari, ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, ahamiyati, mavqeyi haqida so‘z boradi. Islom dini paydo bo‘lgunga qadar ayollarga bo‘lgan munosabat hamda Islom kirib kelgandan keyin ayollarga berilgan huquqlar o‘zaro taqqoslanib, chuqur tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** gender tenglik, ayollar huquqi, jamiyat, ta’lim, oila, nikoh, meros, moliyaviy masalalar

Hozirgi kunda global miqyosda muhokama va munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan mavzulardan biri- bu gender tenglik masalasidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining kambag‘allikni yo‘q qilish hamda dunyoni yaxshilashga qaratilgan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” deb nomlanuvchi dasturda belgilab qo‘yilgan 17 maqsadning beshinchisi sifatida gender tenglikning keltirilishi ham ushbu masalaning ahamiyatli ekanligining isboti deyish mumkin. Gender tengligi deganda barcha odamlar, jinsidan qat’iy nazar, ayolmi yoki erkak jamiyatda teng huquq, mas’uliyat va imkoniyatlarga ega bo‘lishi nazarda tutiladi. Gender tengsizligi muammosining hal qilinishi butun dunyo mamlakatlari va ularda yashovchi fuqarolar uchun birdek foydali va manfaatli bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Xususan, gender tengligi ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini oladi. Bundan tashqari bu iqtisodiy farovonlik uchun ham zarurdir. Ma’lum qilinishicha, ayollar va erkaklarni teng qadrlaydigan jamiyatlar nisbatan xavfsizroq va sog‘lomroq hayot kechiradilar. Shu boisdan ham,

ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishning eng yaxshi yo‘li sifatida gender tengligini targ‘ib qilishni keltirish mumkin.

Islom dinida ayollar masalasiga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, shuni ta’kidlash mumkinki, Islom dinida har bir insonning jamiyatda o‘z o‘rni va o‘ziga yarasha hurmati bor ekanligi bayon etilgan. Shu jihatdan, muslimmon jamiyatida ayollarning o‘rni, ularning haq-huquqlari masalalariga alohida e’tibor qaratib kelingan. Islomda ayol va erkak teng huquqli hisoblanadi, biror jins tahqirlanib biror jins vakili yuqori sanalmagan. Ayollar ham erkaklar kabi bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, erkaklar kabi yaxshi munosabat ko‘rsatilishi va hurmat qilinishi lozimligi belgilangan.

Islom dinida ayollar o‘rni qay darajada ekanligini yaxshiroq bilish va baholay olish uchun islam dini kirib kelgunga qadar ayollarning jamiyatda o‘rni qanday bo‘lganligini ko‘rib chiqish lozim. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, johiliyat davrida ayollarning deyarli huquqlari bo‘lmagan. Islom dini paydo bo‘lishidan oldin ayollarga zulm qilish, ularni odam o‘rnida ko‘rmaslik, ularni meros qilib kimgadir berib yuborish, moliyaviy huquqlardan, ya’ni merosdan mahrum qilinish kabi holatlar mavjud bo‘lgan. Bundan tashqari, johiliyat davrida arablar uchun qiz farzand tug‘ilishi isnod hisoblanib, tug‘ilgan chaqaloqni tiriklay ko‘mib yuborganliklari haqida dalillar mavjud. Islom dini kirib kelganidan keyin ayolga insoniylik huquqlari qaytarilib berildi. Islom arab jamiyatining tuzilishini, ayollarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirdi, gender rollarini isloh qildi. Professor William Montgomerining tadqiqotiga ko‘ra, Islom ayollarning holatini yaxshilagan, ularga huquqlar bergen.<sup>1</sup> Ba’zi tadqiqotchilar ta’kidlashicha, Islomda ayollar XX asrgacha bo‘lgan ba’zi G‘arb mamlakatlariga qaraganda ko‘proq huquqlarga ega bo‘lganlar. Misol uchun, Fransiyada qonunchilikka muvofiq ayollar huquqlarini cheklash 1965-yilga kelibgina bekor qilingan.<sup>2</sup> Ungacha fransuz qonunchiligi ko‘ra ayollar huquqlarida cheklovlar mavjud bo‘lgan.

<sup>1</sup> Maan, Bashir and Alastair McIntosh. “The whole house of Islam, and we Christians with them.

<sup>2</sup> Badr, Gamal M. (Winter 1984), „Islamic Criminal Justice“ // The American Journal of Comparative Law ([https://uz.m.wikipedia.org/w/index.php?title=The\\_American\\_Journal\\_of\\_Comparative\\_Law&action=edit&redlink=1](https://uz.m.wikipedia.org/w/index.php?title=The_American_Journal_of_Comparative_Law&action=edit&redlink=1)) 32 (1): 167–169 [167-8]

Garvard universitetining huquqshunos professori Noa Feldman qayd etadiki: “Inglizlar barcha mustamlakalarda bo‘lgani kabi o‘z qonunlarini musulmonlarga ham qo‘lladilar, maqsad esa bitta edi – ayolni islom qonunlari bergan huquqdan mahrum qilish. Buni gender tenglik yo‘lidagi rivojlanish deb atash mushkuldir”.<sup>1</sup> Ushbu fikrlar Islom dini kirib kelgandan keyin ayollarning umumiy holati yaxshilanganligi, ularning jamiyatda o‘rni va ahamiyati ortganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Islom dini muqaddas kitobi Qur’oni karimda keltirilishicha, Alloh taolo barcha insonlar, jihsidan qat’iy nazar, teng ekani va ularni bir jondan yaratganini bayon qiladi: “*Ey, odamlar! Sizlarni bir jon (Odam)dan yaratgan va undan jufti (Havvo)ni yaratgan hamda ikkisidan ko‘p erkak va ayollarni yaratgan Rabbingizdan qo‘rqingiz!...*” (*Niso surasi 1-oyat.*) Shuning uchun ham musulmon jamiyatida, musulmon dunyosida erkak va ayol huquqlari teng o‘laroq, birining huquqlari boshqasinkidan ustun qo‘yilmaydi.

Ba’zi jihatlarda, masalan moliyaviy tomonlama ayol kishining huquqlari biroz pastroq. Buning ham o‘z hikmati bor. Masalan, meros masalasida ayollarga kamroq taqsim qilinadi. Nima uchun deganda, ayol kishining moliyaviy sarf-xarajati kamroq bo‘ladi, shunga qaramasdan ayollar meros olish huquqiga ega bo‘lib, Islom tarqalishidan oldin bu huquq ilgari faqat erkakning qarindoshlariga berilgan. Annemari Schimmel aytadiki, „Ayol o‘rnini islomgacha bo‘lgan davr bilan solishtirganda, Islom qonunlari ostidagi ayol holatining bunday o‘zgarishlari ulkan taraqqiyotni anglatardi; qonunga muvofiq ayol o‘z boyligini boshqarish huquqiga ega bo‘ldi“.<sup>2</sup> Tan olib aytish kerakki, Islom ayollarga katta huquq va erkinliklar bergan holda, ularning, ya’ni ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi.

Islom dini ayollarning sha’nini ko‘tarib, ularning turmush tarzini go‘zallashtirgan. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ayollarga o‘z erlariga itoat qilishni, erkaklarga esa jufti halollariga mehribonlik qilishni buyurganlar. Qizlarni majburlab erga berish, ularning mollarini yeyishni man qilganlar. Chunki johiliyat davrida ayollar meros ololmas, agar biror kishiga qiz farzand ko‘rganining xabari berilsa,

<sup>1</sup> Noah Feldman (March 16, 2008). „Why Shariah?“. New York Times.

<sup>2</sup> Schimmel (1992) p.65

g‘azablanganidan yuzlari qorayib, bo‘zarib ketar edi. Alloh taolo Qur’oni karimda ularning bu holatini bunday bayon qiladi:

*“Qaysi birlariga qiz (ko ‘rgani haqida) xushxabar berilsa, g‘azabi kelib, yuzlari qorayib ketadi. U (qiz)ni kamsitgan holda, olib qolish yoki (tiriklay) tuproqqa qorish (to ‘g‘risida o ‘y surib), o ‘ziga xushxabar berilgan narsaning «yomon»ligidan (oriyat qilib) odamlardan yashirinib oladi. Ogoh bo‘lingizki, ularning bu hukmlari juda yomondir (“Nahl” surasi, 58-59 oyatlar).*

Islomda erkak va ayol o‘rtasida hech qanday farq bo‘lmay, ular o‘zaro teng huquqli hisoblanadi, chunki ikkalasiga ham yaxshilik uchun bir xil mukofot va yomonlik uchun bir xil jazo va’da qilingan. Qur’oni karimda shunday deyilgan:

*“Erkaklarning ayollar ustidagi haqlari kabi ayollarning ham erkaklar ustidagi haqlari bordir”. (2:226)*

Qur’on mo‘minlarga xitob qilar ekan, ko‘pincha "mo‘min erkak va ayol" iborasini ishlatib , erkak va ayolning burchlari, huquqlari, va fazilatlari bo‘yicha tengligini ta’kidlaydi. Unda shunday deyilgan: *“Albatta, muslimlar va muslimalar, mo‘minlar va mo‘minalar, davomli itoatkor erkaklar va davomli itoatkor ayollar, sadoqatli erkaklar va sadoqatli ayollar, sabrli erkaklar va sabrli ayollar, hushuli erkaklar vahushuli ayollar, sadaqa qiluvchi erkaklar va sadaqa qiluvchi ayollar, ro‘za tutguvchi erkaklar ro‘za tutguvchi ayollar, farjlarini saqlovchi erkaklar va farjlarini saqlovchi ayollar, Allohn ni ko ‘p zikr qilguvchi erkaklar va Allohn ni ko ‘p zikr qilguvchi ayollar – o ‘shalarga Alloh mag‘firatni va ulug‘ ajrni tayyorlab qo‘ygandir”.* (Ahzob surasi, 35-oyat.)

Islom dinida nafaqat ayol va erka teng qilib qo‘yilgan balki erkaklarga ayollarga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lishga, ularning haqlarini ado qilishga chaqirilgan. Qur’oni karimda ayollarga zulm qilgan yoki yomon muomala qilgan erkaklarga nasihat qilingandi: *Ey, iymon keltirganlar! Sizlarga ayollarni zulm-la merosga olish halol emas. Ochiq fohisha ish qilmasalar, bergen narsalar ingizning ba’zisini olish uchun ularni zo‘rlik-la ushlab turmang va ular ila yaxshilikda yashang. Agar ularni*

*yoqtirmasangiz, shoyadki, Allah siz yoqtirmagan narsada ko‘pgina yaxshiliklarni qilsa. (Niso surasi, 19-oyat).*

Islom dini ayollarning sha’ni, obro‘si, qadr-qiymatini ko‘klarga ko‘tardi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Islomda ayol mutlaqo mustaqil shaxsdir. U o‘z nomidan har qanday shartnomaga yoki vasiyatni tuzishi mumkin. U ona, umr yo‘ldosh, opa-singil va qiz sifatida meros olish huquqiga ega. U erini tanlashda mukammal erkinlikka ega. Islomgacha bo‘lgan Arabistonning butparast jamiyati o‘z farzandlarini tiriklayin ko‘mib tashlagan qiz bolalariga nisbatan aql bovar qilmaydigan noto‘g‘ri qarashga ega edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu odatga mutlaqo qarshi edilar. Ularga qiz farzandlarini qo‘llab-quvvatlashlari ular uchun do‘zax olovidan parda bo‘lishini ko‘rsatdi. Ayol uchun eng yomon musibat eri vafot etganida va beva ayol sifatida bolalarni boqish mas’uliyati uning zimmasiga tushadi. Ayol har doim ham pul topish uchun tashqariga chiqmaydigan Sharq dunyosida bevalik muammolarini ta’riflab bo‘lmaydi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) bevalar masalasini qo‘llab-quvvatlaganlar. Xotinlarining aksariyati bevalar edi. Beva ayollar kamdan-kam hollarda qayta turmush qurishga ruxsat berilgan davrda Payg‘ambarimiz o‘z izdoshlarini ularga uylanishga undagan. U har doim bevalarga yordam berishga tayyor edi va izdoshlarini ham shunday qilishga undadi. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Beva ayolga yoki kambag‘alga (yordam berishga) sa‘y-harakat qilgan kishi Allah yo‘lidagi mujohid (jangchi) yoki kechasi namozga turib, kunduzi ro‘za tutuvchi kabidir”.

Islomda ayol ona sifatida katta hurmatga ega. Qur’oni Karim bir qancha oyatlarda ona haqlari haqida so‘z yuritadi. Musulmonlarni onalariga hurmat-ehtirom ko‘rsatishni va hatto kofir bo‘lsalar ham ularga yaxshi xizmat qilishni buyuradi. Shariat ayollarni ham erkaklarni ham ruhiy va aqliy jihatdan teng deb biladi. Ular o‘rtasidagi asosiy farq, jismoniy sohada mehnat taqsimotiningadolatli printsipiga asoslanganligidir. Bunda ayol kishi erkak kishiga nisbatan jismoniy zaifroq bo‘lganligi bois, erkakka mashaqqatliroq ishlarni yuklaydi va uni oilani saqlashga mas’ul qiladi. Uyni boshqarish, bolalarni tarbiyalash va o‘qitishni esa ayolga yuklaydi, bu sog‘lom va

farovon jamiyat qurish vazifasida muhim ahamiyatga egadir. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Islom dinida ayollar katta haq-huquqlarga ega bo‘lib, ularga ko‘plab imkoniyatlar berilgan. Islom dini paydo bo‘lganiga qadar ayollarga qilinganadolatsiz munosabatlar, razilliklarga Islom dini kirib kelishi bilan chek qo‘yildi. Ayollar jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ularning qadri-qiymati va ahamiyati yanada oshdi, ayollar haq-huquqlari himoyaga olindi. Hozirgi davrga kelib esa ba’zi islom davlatlarida ayollar huquqlarining buzilish holatlarini uchratish mumkin, bu kabi muammolar esa ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tenglik masalasini ahamiyatini yanada oshirmoqda hamda butun dunyo hamjamiyatini ushbu muammoni hal qilish uchun harakatga kelishga undamoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Maan, Bashir and Alastair McIntosh. “The whole house of Islam, and we Christians with them.
2. [\\_Law&action=edit&redlink=1](#) 32 (1): 167—169 [167-8]
3. Noah Feldman (March 16, 2008). „Why Shariah?“. New York Times.
4. <https://sammuslim.uz/oz/islam/juma/05032021-y-islomda-ayollar-huquqi>
5. Schimmel (1992) p.65
6. J.Hamroqulov. “Ayollar islom nigohida”. <http://old.muslim.uz/index.php/ayollar-sahifasi/item/2440-ajollar-islom-nigo-ida>
7. Jamal Badawi The status of women in Islam
8. „СЕКСУАЛЬНЫЕ ДОМОГАТЕЛЬСТВА В АРАБСКИХ СТРАНАХ“  
«Международный Центр междисциплинарного образования»
9. „Закон о домогательствах к женщинам в Египте | Institut Blijnego Vostoka“
10. [https://www.iium.edu.my/deed/articles/woman\\_quran.html](https://www.iium.edu.my/deed/articles/woman_quran.html)
11. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Islom\\_dinida\\_ayol](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Islom_dinida_ayol)

## SUG'URTANING OMMAVIY RISKLI TURLARI BO'YICHA TA'RIF STAVKALARINI HISOBLASH USULI

**Turaxanov Jaxongir Utkir o'g'li**

Termiz davlat pedagogika instituti

[jaxongirturaxanov1995@gmail.com](mailto:jaxongirturaxanov1995@gmail.com)

**Muxtorov Asliddin**

Qiziriq tumani 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

[asliddinmuxtorov@gmail.com](mailto:asliddinmuxtorov@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Sug'urtalanuvchi mijoz bilan sug'urta kompaniyasi o'rtasida sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng va kichik miqdordagi sug'urta to'lovi hisobiga risk sug'urta kompaniyasiga o'tadi. Shuning uchun sug'urta kompaniyalari risklar bilan shug'ullanadi va ularning faoliyati o'z navbatida kasodlik xavfi bilan bevosita bog'liqdir.*

**Kalit so'zlar:** Sug'urta , kasodlik, risk jarayonlari, Lundberg bahosi.

**Sug'urtaning riskli turi** deganda hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlari tushuniladi.

**Sug'urtaning ommaviy riskli turlari** degani bir xil turdagi sug'urta ob'ektlarining sug'urta summalari miqdoriy kam farqlanadigan, ko'p sonli sub'ektlar sug'urtasini va risklarini qamrab oluvchi sug'urta turlarini bildiradi.

Taklif etilayotgan usul riskli sug'urta turlari bo'yicha ta'rif stavkalarini hisoblash uchun yaroqli va quyidagi shartlarda qo'llaniladi:

1) Quyidagi qiymatlarni baholashga imkon beradigan sug'urta turi bo'yicha statistika yoki qandaydir boshqa ma'lumotlar mavjud:

$q$  – bitta sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta hodisasi ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ehtimollik;

$S$  – bitta sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘rtacha sug‘urta summasi;

$S_B$  - bitta sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta hodisasi ro‘y berganda o‘rtacha sug‘urta qoplamasi.

2) bitta hodisa bir nechta sug‘urta hodisalarini keltirib chiqaruvchi hodisalar bo‘lmaydi deb faraz qilinadi.

3). Sug‘urta tarifini hisoblashda sug‘urta shartnomalarining soni n avvaldan ma’lum deb faraz qilinadi.

Qaralayotgan sug‘urta turi bo‘yicha statistik ma’lumotlar mavjud bo‘lganda  $q$ ,  $S$ ,  $S_B$  larning qiymati uchun ularning quyidagi baholari olinadi:

$$(0.1) \quad q = \frac{M}{N}$$

$$(0.2) \quad S = \frac{\sum_{i=1}^N S_i}{N}$$

$$(0.3) \quad S_b = \frac{\sum_{k=1}^M S_{bk}}{M}$$

Bu yerda  $N$  -o‘tmishda muayyan vaqt davomida tuzilgan shartnomalarning umumiyl soni;

$M$  -  $N$  ta shartnomalardan sug‘urta hodisalari ro‘y berganlari soni;

$S_i$  - i – chi shartnomaning sug‘urta summasi,  $i=1,2,\dots,N$ ;

$S_{bk}$  -  $k$  -chi sug‘urta hodisasi uchun sug‘urta qoplamasi,  $k = 1,2,3,\dots,M$ .

Yangi riskdan sug‘urtalashda, uning sug‘urta operatsiyalari natijalari bo‘yicha muayyan statistik ma'lumotlar mavjud bo‘lmaganda, ya'ni,  $q$ ,  $S$  va  $S_b$  qiymatlari hisoblash bo‘yicha statistika mavjud bo‘lmaganda, bu qiymatlar ekspert usuli bilan baholanishi mumkin yoki ularning qiymatlari sifatida analog (o‘xshash sug‘urta kompaniyalari) ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Bunday holda, ekspertlarning fikrlari yoki  $q$ ,  $S$  va  $S_b$  larning analog ko‘rsatkichlarini tanlashning asosliligi haqida tushuntirishlar berilishi kerak va o‘rtacha to‘lovning o‘rtacha sug‘urta summasiga nisbati  $\left(\frac{S_b}{S}\right)$  quyidagilardan kam bo‘lmasligi tavsiya etiladi:

0,3 – baxtsiz hodisalardan va tibbiy sug‘urtada kasallanishdan sug‘urtalashda;

0,4 – yer usti transportlari vositalarini sug‘urtalashda;

0,6 – havo va suv transportlari vositalarini sug‘urtalashda;

0,5 – transport vositalaridan tashqari yuk va mulklarni sug‘urtalashda;

0,7 - transport vositalari egalarining javobgarlik va boshqa javobgarlik sug‘urtasida, moliyaviy risklarni sug‘urtalashda.

## NETTO-STAVKA

$T_n$ -netto-stavkasi ikki qismdan,  $T_0$ -asosiy qismi va  $T_p$ -risk qo‘shimchasidan iborat bo‘ladi:

$$(0.4) \quad T_n = T_0 + T_p$$

Netto-stavkaning asosiy qismi ( $T_0$ ) sug‘urtachining har bir sug‘urta shartnomasi bo‘yicha **o‘rtacha to‘lovi** mos kelib, u sug‘urta hodisasi yuzaga kelishi ehtimoli  $q$  ga, sug‘urta summasining o‘rtacha miqdori  $S$  ga va o‘rtacha zarar to‘lovi  $S_b$  ga bog‘liq. Netto-stavkaning asosiy qismi 100 p.b. dan quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$(0.5) \quad T_0 = 100 \frac{S_b}{S} \cdot q (\%).$$

$T_p$  risk qo‘shimchasi **sug‘urta hodisalarining soni ularning o‘rta qiymatidan**

**oshib ketish ehtimolini hisobga olish uchun kiritiladi.** Risk qo'shimchasi  $q$ ,  $S$  va  $S_b$  lardan tashqari, yana uchta parametrga bog'liq:

- 1) sug'urta amalga oshiriladigan vaqt davriga taalluqli shartnomalar soni  $n$  ga,
- 2) to'lovlarning o'rtacha kvadratik og'ishishi bo'lgan  $R_b$  ga va 3) yig'ilgan sug'urta mukofotlarining miqdori, sug'urta hodisalari bo'yicha to'lovlarni qoplash uchun yetarli bo'lishi kafolati  $\gamma$  ga bog'liq bo'ladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Formonov Sh.Q. Aktuar matematika. Darslik. Toshknt, "Mumtoz so'z" 2018
2. FormanovSh.Q. Ehtimolliklar nazariyasi. Darslik. Toshkent, "Universitet", 2014
3. Фалин Г. И., Фалин А. И. Теория риска для актуариев в задачах, М.: Изд-во «Мир», 2004

## ZAMONAVIY QO'SHIMCHALARNI TURLARI VA FUNKSIONAL ISHLATILISHI BO'YICHA KLASSIFIKATSIYASI

**Nuramadov N.R**

Assisent, Jizzax politexnika inistituti

**Xulasova Kamola**

Talaba, Jizzax politexnika inistituti

### **ANNOTATSIYA**

*Beton va fibra beton va chiqindilar asosidagi beton mahsulotarini ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qurilish ishlari samaradorligi va sifati bo'yicha talablar qo'yiladi. Bularni muofiqaytli ravishda amalga oshirish uchun, asosan, material va konstruksiyalar, ishlab chiqarishni rivojlantirish, qurilish qiymati va sermehnatligini, bino va inshotlarning og'irligini pasaytirish taminlovchi hamda ularni qurilish va ekspulatatsiya qilishdagi jami energetik mablag'lar sarfini kamaytirishga erishish kerak.*

**Kalit so'zlar:** Bazalt toshi, bazalt tola, bazalt armatura, fibra beton, sement, mikrokremneziyom, qo'shimchalar, plastifikator, superplastifikator.

**Аннотация:** Для развития производства бетона и фибробетона и бетонных изделий на основе отходов предъявляются требования к эффективности и качеству строительных работ. Для их успешной реализации необходимо добиться снижения общих энергозатрат на строительство и эксплуатацию материалов и конструкций, развитие производства, что обеспечивает снижение себестоимости и трудоемкости строительства, веса зданий и сооружений. структуры.

**Ключевые слова:** Базальтовый камень, базальтовое волокно, базальтовая арматура, фибробетон, цемент, микрокремнезем, добавки, пластификатор, суперпластификатор.

### Sanoat chiqindilari asosidagi qo'shimchalar

Sanoat chiqindilaridan hosil bo'lgan asosiy qo'shimchalarga quyidagilar kiradi: bir qator metallurg jarayonlari natijasida hosil bo'ladigan oq qora kuya, ko'llar, gurunch po'stlog'idan hosil bo'ladigan ko'l, yuqori aktiv granullangan shlakllar saqich. Bu chiqindilarni asosiy oksidlari bo'yicha kimyoviy tarkibi keng chegarada tebranadi.

Masalan, gurunch puchogidan hosil bo'lgan kulni tarkibi  $\text{SiO}_2$ -48%,  $\text{Al}_2\text{O}_3$ - 28%,  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ -9%,  $\text{CaO}$ -4%,  $\text{MgO}$ -2% lardan iborat.

Mineral qo'shimchalarni kiritishi beton qorishmasini tarkibiga, reologik xossalariiga, portlandsement gidratlanish darajasiga, mustaxkamligiga, qotgan beton o'tkazuvchanligiga aggressiv muhitni ta'sir etishini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki sementga 30% gachan kul kiritilsa, taxminan 7% gacha suvga talabchanlik kamayadi. Ammo, hamma mineral qo'shimchalar suvga talabchanligini kamaytirmaydi, ayniqsa kulda 100 mkm o'lchamdagি zarrachalar ko'p bo'lsa va bunda suv miqdori sement massasiga to'g'ri proporsional ravishda o'sib boradi.

Beton mustaxkamligiga va zichligiga gidratlangan sement katta g'ovaklar va mikrodarsliklar borligi sa`lbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mineral qo'shimchalar katta g'ovaklarni kichkina g'ovaklarga aylantiradi va mikrodarsliklarni kamaytiradi.

Ammo bu hodisani aniq mexanizmini to'liq yoritilmagan, lekin aniqlandiki mineral qo'shimchalar suvga talabchanligini, suv ajralishini, tutib olish muddatlarini o'zgartirish portlandsement hamirida g'ovaklar o'lchamini kamaytirish qobiliyatiga ega, tuzilishiga va kontakt zonani mexanik mustaxkamligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

gidratlangan portlandsement xamirida g‘ovaklarni o‘lchamini kamaytirish qobiliyatiga ega.

Demak, mineral qo‘srimchali betonlar qo‘srimchasiz betonlarga nisbatan mustaxkamliroq va uzoq muddatga chidamliroq.

Beton mustaxkamligiga mineral qo‘srimchalar beton qorishmasini mineral tarkibiga, harorat va namligiga, zarrachalar xususiyatlariga, mineralogik tarkibiga bog‘langan holda ta’sir etadi.

Modifikator qo‘srimchalar sifatida har xil sanoat chiqindilari va uning mahsulotlari keng qo‘llanmoqda.

Havo olib kiruvchi sifatida OTP-sovunlangan pek keng qo‘llanadi. Neft kimyoviy sanoati. Neft pirolizi chiqindisi (polipropilen, past haroratli polipropilen, og‘ir suyuq yonilg‘i, oksidlangan parafin distillyati)-bular sust plastifikatorlar, betonga havo olib kiruvchi va mahkamlanuvchi qo‘srimcha sifatida ta’sir etishadi. Neytrallangan qora kontakt (NRK)-sovuuqqa chidamligini oshirishi uchun plastifikator va havo olib kiruvchi, skruber pastasi ham havo olib kiruvchi qo‘srimcha, va sust plastifisirlovchi sifatida qo‘llaniladi.

Oziq-ovqat sanoati chiqindilari (shu jumladan spirtli va qantli): (GK) Gidrolizli qon, sut zardobi, bug‘langan barda - (BPB) plastifikatorlar. Shakar qoldig‘i (melassa) tutib qolishni sekinlashtruvchi-beton qorishmasini katta masofaga tashishda va issiq iqlimda qo‘llanadi.

### **Mikrobiologik sanoati:**

Tetrasiklinni tashlandiq suvlari (BVT) miselyar oqsil massa (MVS) ishlatilgan oleondomisin suvi (ONTO), drojasidan qolgan qoldiqlari (PDO)-sementni iqtisod etish uchun, har xil samaradorlik darajali plastifikator sifatida qo‘llanadi.

Kimyoviy sanoat: PAЩ-1 har xil ishlab chiqarish sanoat-chiqindilari ular plasstifikatorlar va gidrofobizatorlar sifatida mustaqil qo‘llanadi yoki kompleks qo‘srimcha (KoD). Neytrallangan akrilit chiqindilar (20-03) plasstifikatorlar sifatida qo‘llanadi.

Xlorvinil ishlab chiqarish chiqindilari, difenilamin ishlab chiqarishdagi tuzli chiqindilar, sulfat va ftorli angidritlar maxalliy sharoitlarda plasstifikatorlar yoki unga samaradorligi yuqori bo‘lmagan tezlatuvchi sifatida qo‘llaniladi.

Yengil sanoat: Teri ishlab chiqarishdagi sanoatidan-gidrolizat plastifikator sifatida qo‘llaniladi.

Sovun pishirish sanoati chiqindilari: Chiqindilari gidrofob va plastifikator SDB bilan birgalikda KOD kompleks qo‘shimcha sifatida ishlatiladi. Bu 8 qo‘shimchalari samaradorligi maxsus qo‘shimchalarga nisbatan past, shuning uchun ularni ko‘p miqdorda qo‘shiladi.

Qo‘shish miqdorini oshirishi birinchi navbatda mumkin bo‘lgan har xil salbiy xodisalarni oshirishi mumkin. Betonda organik fazani ko‘paytirishni, ya’ni biologik yemirilishini shunday effektlardan boshlab bog‘lovchini zaxarlashi tugatilib yoki moyilligini o‘sishi.

### **Betonga qo‘shiladigan bioqo‘shimchalar.**

Oziq-ovqat kombinatlarda, tibbiyot korxonalarini binolari komplekslarida bakteriyalari paydo bo‘lishini va rivojlanishini oldini olish uchun beton va yig‘ma temir konstruksiyalar biotsid xossalariiga ega bo‘lishlari kerak.

Mikrojinslar o‘zining hayot tarzi jarayonida organik kislotalar ajratadilar, ular esa ximikat va alyumosilikatlar bilan kompleks birikmalar va yengil eriydigan kalsiy tuzlar xosil qiladilar.

Qurilish konstruksiyalar yuzasida mog‘ol qo‘ziqorinlar yog‘ilib organik kislotalar(limon) ajratadilar, ular kuchli kation agent bo‘lib sement minerallari bilan yengil eriydigan kompleks birikmalar xosil qiladilar.

Yuqori g‘ovakli va gidrofil qurilish konstruksiyalarda kalsiy ionlarini sement toshidan ishqoriy yuvishiga ko‘maklashadigan bakteriyalar joylashadilar. Bu holda RN ko‘rsatgichi nisbiy va betonni karbonlashish darajasini oshirishiga va uni buzilishiga olib keladi.

Bakteriyalar nafaqat betonni buzishi mumkin, xatto po'lat armaturani ham, yoki bilvosita po'latga ta'sir etib, yoki havo sharoitida oldin azot, keyin esa azot kislotasini xosil qiladi.

Biotsidlar- bu modifikatorlar-beton va boshqa qurilish materiallarini biologik ta'siridan himoya qilish uchun qo'llanadi. Ular yuqori faolikka ega, ishslashda xavfsiz bo'lishlari kerak, atrof muxitga salbiy ko'rsatmasligi lozim, materialarni ekspluatasion va biotsid xossalarni uzoq vaqt dovomida saqlashlari kerak.

Suvoq qorishmalarda sentozol, trilan, natriy penta xlofenollet ishlatilganda ijobiy natijalar olingan. Cement pollarni ximoyalanganda mis kukuni, magniy oksixlorid ishlatiladi. Beton yoki qorishma tarkibiga bioximik yemirilishiga chidamliligini oshirishi uchun maxsus qo'shimchalar kiritiladi:

Organik birikmalar-fenollar, xlorobamin kislotalar mahsulotlari, qo'rg'oshin, mis, kreminiy va birikmalari. Agregat holati bo'yicha biotsidlar qattiq (kukun) suyuq, gaz xolati bo'ladilar (fumigantlar, uchuvchi funsitlar).

Ervchanlik bo'yicha-suvda eriydigan, kam eriydigan va organik erituvchilarda eriydiganlar. Eng ko'p tarqalgan biotsid qo'shimchalar: - katapin-bakterisid-piridin bilan aromatik uglevodorodlarning xlormetil mahsulotlari kondensatli mahsuloti, kiritish miqdori sement massasidan 0,5-2% ni tashkil etadi; - lastonoks-simob organik biotsid, tavsiya etiladigan miqdori 0,1-0,3% sement massasidan ABP-4,0-latos biotsidi.

Butilakrilat, metil, akrilat, akril kislotasi tributil qo'rg'oshin metaklirat emulsiyasi polimerlash mahsuloti.

Qo'shimcha keng bakterisid ta'sir etish spektriga ega. Biotsid qo'shimchalar beton va qurilish qorishmasini, temirbeton konstruksiyalar yuzasida yoki ichida joylashgan mikro turiga qarab tanlanadi.

Biotsidlar yuqori faollikka ega bo'lishlari kerak, atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, betonni texnologik va fizik-mexaniq xossalarni yomonlashtirishni oldini olish kerak.

Bakteriyalar ta'siridan betonni ximoyalashi uchun formalin qo'llanadi. Oliy yog'lik aminlar, tuzlari (DON-5) amino parafin xlorgidratlari (ANP-2), alkilmetillamoniylorid (Nirton, Rokkal) biotsid xossalari yemirilish ingibitorlar xossalari bilan birlashgan noorganik biotsidlardan fтор, kremneftor, burobora; nitrat kislotalar tuzlari ishlataladi.

Bir xil modifikatorlarni biotsid ta'siri (burobor kislotasi, yoki noorganik tuzlar asosida) issiqlik ishlovi jarayonida yuqolishi mumkin. Uksus-mishya'kli, mish'yak kislotasini misli tuzlarini suvda yuqori eruvchanligi, ularni betondan ishqoriy yuvilishini ta'minlaydi va shunga o'xshash biotsidlarni ta'siri vaqtincha xususiyatga ega.

Keng biotsid spektr ta'siriga ega bo'lgan, yuqori samarador preparatlarga qo'rg'oshin organik birikmalar kiradi, (lateks ABP-40, 0,5% gachan 10 sement massasidan), bular issiqlik ishlovi jarayonida xossalarni o'zgartirmaydi.

Sanoat va maishiy oquv suvlar ta'sir etish sharoitlarida kation sirtqi-aktiv moddalar assosidagi bakterisidlar o'zlarini faoliyatini yaxshi ko'rsata oladilar: katamin-hamma suv sement nisbati moxiyati va katapin-faqat zinch betonlar uchun. Beton va qurilish qorishmalari katamin bakteriyatsid bilan moderifikatsiyalanganlar, chorvachilik xonalari, non pishirish korxonalari, go'sht qayta ishlash sanoatida, qurilishida qo'llanadi.

## ADABIYOTLAR

1. X.A.Akramov, M.Turopov "Beton va temir-beton texnologiyasi" Toshkent-2021 yil.
2. Komilov X.X "Zamonaviy qurilish materiallari" (oquv-uslubiy majmua), TAQI.2020 y.
3. Beton va temir-beton texnologiyasi (Qurilish qorishmalari texnologiyasi). O'quv qo'llanma. TAQI - 2020, Raximov Sh.T.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8- noyabrdagi № PQ-3379 - sonli «Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.
5. Askarov, X. A., Askarova, M. B. Q., & Axmadaliyev, U. S. O. (2021). Bino va inshoatlarni qurishda ishlatiladigan g‘ishtlarning tahlili. *Scientific progress*, 1(6), 1112-1116.
6. Qodirova, G. (2023). QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA FOSFORLI O ‘G ‘IT CHIQINDILARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. *Interpretation and researches*, 1(9).
7. Askarov, X., & Mamajonov, M. (2023). INSHOOT VA BINOLARGA ZILZILA TA’SIRI NATIJASIDA YUKLAR TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(6), 12-14.
8. KOMPAZIT KURILSH MATERIALLARI POLISTIROLLI BETON BLOK XUSUSIYATLARI X Askarov, A Kayumov - GOLDEN BRAIN, 2023 74-76.
9. QURILISH SANOATIDA KERAMZIT BETON TO ‘SQICHLAR TAYYORLASH INNOVATSION TEKNOLOGIYASI X A Askarov, SM Maxmudov INTERNATIONAL CONFERENCES 1 (10), 99-102.

## ZAMONAVIY QO'SHIMCHALARNI TURLARI VA FUNKSIONAL ISHLATILISHI

**Nuramadov N.R**

Assisent, Jizzax politexnika inistituti

**Noryigitov Nodirbek**

Talaba, Jizzax politexnika inistituti

***Annotatsiya:** Beton va fibra beton va chiqindilar asosidagi beton mahsulotarini ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qurilish ishlari samaradorligi va sifati bo'yicha talablar qo'yiladi. Bularni muofiqaytli ravishda amalga oshirish uchun, asosan, material va konstruksiyalar, ishlab chiqarishni rivojlantirish, qurilish qiymati va sermehnatligini, bino va inshotlarning og'irligini pasaytirish taminlovchi hamda ularni qurilish va ekspulatatsiya qilishdagi jami energetik mablag'lar sarfini kamaytirishga erishish kerak.*

***Kalit so'zlar:** Bazalt toshi, bazalt tola, bazalt armatura, fibra beton, sement, mikrokremneziyom, qo'shimchalar, plastifikator, superplastifikator.*

***Аннотация:** Для развития производства бетона и фибробетона и бетонных изделий на основе отходов предъявляются требования к эффективности и качеству строительных работ. Для их успешной реализации необходимо добиться снижения общих энергозатрат на строительство и эксплуатацию материалов и конструкций, развитие производства, что обеспечивает снижение себестоимости и трудоемкости строительства, веса зданий и сооружений. структуры.*

**Ключевые слова:** Базальтовый камень, базальтовое волокно, базальтовая арматура, фибробетон, цемент, микрокремнезем, добавки, пластикатор, суперпластикатор.

### Qo'shimchalar turlari

Hamma qo'shimchalar (tabiiy yoki sun'iy kimyoviy mahsulotlar) ularni ta'sir etish mexanizmi bo'yicha sinflanadi va 4 sinfga bo'linadi:

1-qo'shimchalar, mineral bog'lovchi moddalarni eruvchanligini o'zgartiruvchi va ular bilan kimyoviy reaksiyasiga kirishmaydigan.

2-qo'shimchalar, bog'lovchilar bilan reaksiyaga kirishuvchi va qiyin eruvchan yoki kam eruvchan kompleks birikmalar xosil qiluvchilar.

3-qo'shimchalar, kristallanish tayyor markazini xosil qiluvchilar.

4 - organik sirti aktiv moddalar (SAM), qatiq fazani sirtida adsobsiyalashga qobiliyati bor.

#### Beton uchun qo'shimchalar turlari

Kimyoviy qo'shimchalar betonlar uchun GOST 24 211 bo'yicha ishlatilishiga bog'langan xolda (ta'sir etuvchi asosiy effekt bo'yicha) quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Beton qorishmalarini xossalarni boshqaruvchilar: a) Plastifikatsiyalovchi; I-gurux (superplastifikatorlar); II-gurux (kuchli plastifisirlovchilar); III-gurux (o'rtacha plastifisirlovchilar); IV-gurux (past plastifisirlovchilar). b) Maxkamlovchilar: v) suv ushlab turuvchilar; g) qayta quyuvchilikni yaxshilaydigan; d) beton qorishmalarini saqlanishini boshqaruvchilar, tutib qolishni sekinlashtiruvchilar va tezlashtiruvchilar; y) g'ovak xosil (yengil betonlar uchun), havo olib, gaz xosil qiluvchilar.

2. Betonni qotishini boshqaruvchilar: a) qotishni sekinlashtiruvchilar; b) qotishni tezlashtiruvchilar.

3. Beton va yig'ma temir betonni mustaxkamligini, sovuqqa, aggressiv muhitga chidamligagini oshiruvchilar, o'tkazuvchanligini pasaytiruvchilar: a) I, II, III, IV – guruh suv ajratuvchilar; b) kolmatatsiya; v) havo olib kiruvchilar; g) gaz hosil

qiluvchilar; d) po'lat armaturaga nisbatan beton ximoya xossalarini oshiruvchilar (po'lat yemirilishini ingibitorlari).

4. Betonga maxsus xossalarga ega bo'lishini beruvchilar. a) I, II, III – guruh gidratlovchi qo'shimchalar; b) sovuqqa qarshi (salbiy xaroratlarda qotishni ta'minlovchilar); v) bioqo'shimchalar; g) polimer.

5. Maydalangan mineral qo'shimchalar: a) noaktiv; b) aktiv; v) plastifisirlovchi mineral;

6. Kompleks qo'shimchalar; a) kompleks kimyoviy qo'shimchalar; b) organomineral qo'shimchalar.

#### Mineral qo'shimchalar

Mineral qo'shimchalar – bu o'ta mayda maydalangan moddalar, ular beton va sementga bog'lovchi massasidan 10 dan 20% gacha kiritiladi. Hozirgi vaqtda 4 mineral qo'shimchalar manbai bo'lib sanoat chiqindilari xizmat qiladi, ularni xajmi bir yilda bir million tonnaga yetadi. Bularga tegishli elektrostansiya, metallurg xumdonlardan kimyoviy, oziq-ovqat sanoat chiqindilari kiradi.

Ko'p tadqiqot izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mayda kam faol va hatto inert to'ldirgichlarni 10- 28% ni kiritilishi, sementni klinker qismini to'liq ishlatilishini ta'minlaydi, betonni zichligini oshiradi, deformatsiya, cho'kishni, shishishni kamaytiradi, agressiv suvlar ta'siriga chidamlilagini kuchaytiradi, narxini kamaytiradi.

Betonlar, hatto uzoq vaqt qotganda ham, sementning 40-60 mkm o'lchamdag'i klinker zarrachalari odatda to'liq gidratlanmaydilar va sementda mikroto'ldirgich rolini o'ynaydilar. Shu munosabat bilan shu o'lchamdag'i klinker zarrachalari mustaxkamligini kamaytirmagan holda boshqa mineral qo'shimchalar bilan almashtirish mumkin shu jumladan inert qo'shimcha.

Hamma mineral qo'shimchalar tabiiy va suniy turlarga bo'linadi. Bog'lovchini to'ldirg'ich-qo'shimchalar bilan suyultirishni sementni ortiqcha sarflamasdan har xil markali betonlar olishni imkonini beradi, ularni zichligini oshiradi.

#### Tabiiy mineral qo'shimchalar:

Tabiiy qo'shimchalarga cho'kkан va vulqon jinsli nordon qo'shimchalar kiradi. Bir xil nordon kremniy gil tuproqli vulqon jinsli faol qo'shimchalar pussolon deb aytiladi.

Pussolon qo'shimchalar va sanoat chiqindilari sementga nisbatan qimmat emas va oson erishilishi bo'lganligi uchun ularni boshqa gidravlik qo'shimchalar bilan ishlatilishi sezilarli iqtisodiy 5 samaradorlikka olib kelishi mumkin.

Tabiiy cho'kkан jinsli qo'shimchalarga diatomit, opoka, trepel, gliejlar kiradi. Diatomit va trepellar sirtqi ko'rinishi bo'yicha bir-biridan kam ajraladi. Ular och sariq yoki kulrang yengil, kam mustaxkam, g'ovakli ko'rinishda bo'ladilar, opoka esa og'ir va zinch jinslarga kiradi.

Ular hammasi kimyoviy tarkibi bo'yicha bir biriga yaqin va quyidagilardan iborat (%): SiO<sub>2</sub>-70-90; FeO<sub>3</sub>-3-10; CaO 1-3; ishqorlar 1-3.

Gliejlar - "kuygan jinslar", ular ko'mir orasida joylashgan gillarni yer tagida yonish natijasida xosil bo'ladilar.

Vulqon jinsli tabiiy mineral qo'shimchalarga vulqon kuli, tuf pemza, traslar kiradi. Kimyoviy tarkibiga quyidagilar kiradi SiO<sub>2</sub>+Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> (70-90%), CaO+MgO(-2-4%), ishqorlar 3,8%.

## ADABIYOTLAR

1. X.A.Akramov, M.Turopov "Beton va temir-beton texnologiyasi" Toshkent-2021 yil.
2. Komilov X.X "Zamonaviy qurilish materiallari" (o'quv-uslubiy majmua), TAQI.2020 y.
3. Beton va temir-beton texnologiyasi (Qurilish qorishmalari texnologiyasi). O'quv qo'llanma. TAQI - 2020, Raximov Sh.T.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8- noyabrdagi № PQ-3379 - sonli «Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

5. Askarov, X. A., Askarova, M. B. Q., & Axmadaliyev, U. S. O. (2021). Bino va inshoatlarni qurishda ishlatiladigan g‘ishtlarning tahlili. *Scientific progress*, 1(6), 1112-1116.
6. Qodirova, G. (2023). QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA FOSFORLI O ‘G ‘IT CHIQINDILARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. *Interpretation and researches*, 1(9).
7. Askarov, X., & Mamajonov, M. (2023). INSHOOT VA BINOLARGA ZILZILA TA’SIRI NATIJASIDA YUKLAR TAHLILI. *GOLDEN BRAIN*, 1(6), 12-14.
8. KOMPAZIT KURILSH MATERIALLARI POLISTIROLLI BETON BLOK XUSUSIYATLARI X Askarov, A Kayumov - GOLDEN BRAIN, 2023 74-76

## QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISHNI DEGRADATSIYAGA QARSHI TADBIRLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

**Abdiraxmatov Nuriddin Abdiraxmatovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

*Annotation. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni degradatsiyaga qarshi tadbirlar asosida tashkil etish maqsadida zamonaviy usullardan foydalanish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.*

*Kalit so‘zlar. Degradatsiya, yer, monitoring, zamonaviy usullar, karta va plan.*

**Abstract.** This article provides information on the use of modern methods to organize the use of agricultural land on the basis of anti-degradation measures.

**Keywords:** Degradation, land, monitoring, modern methods, map and plan.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan, jamiyatimizda olib borilayotgan hamma sohalarni erkinlashtirilishiga yo‘naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy qayta qurish, yerga oid munosabatlarni tartibga solish, yer resurslaridan asrab-avaylab, oqilona foydalanish darajasining oshirilishini ta’minlashga qaratilgan obyektiv shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yerdan ayniqla, sug‘oriladigan yerlardan oqilona va samarali foydalanish yotadi. Bu yo‘nalishda keyingi yillarda ham katta hajmlardagi ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, fermer xo‘jaliklari maydonlarini kengaytirish, maxsulot ishlab chiqarishga yangi va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarni ekologik va agrokimyoviy, agrotexnik xolatini va sug‘orish ishlarini yaxshilash maqsadida sug‘orish tizimini takomillashtirish, o‘simliklarini iqlim va tuproq xolatini hisobga olgan holda joylashtirish, yerning holatini saqlash va hosildorligini oshirish, ekin

navlarini yaxshilash kabi bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish jarayonida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va xatolar, o‘z navbatida noto‘g‘ri foydalanishlar yerlarning degradatsiyaga (tanazzulga) uchramoqda. Bu jarayon nafaqat respublikamizda balki butun jahonda dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.

Tuproq degradatsiyaning asosiy turlariga: tuproqning fizikaviy, fizik-kimyoviy, biologik xossalari, havo, suv va issiqlik rejimiga salbiy ta’sir etuvchi, eroziya, degumifikatsiya jarayonlari, qatlamlarning zichlanishi, kislotalikning ortishi, ikkilamchi sho‘rlanish, botqoqlanish kabilar kiradi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarini begona o‘tlar, yadoximikatlar, avtomobil va temir yo‘l transportlari bilan maishiy va sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi davom etmoqda. Tabiyki bularning barchasi sug‘oriladigan ekinzorlarni qisqarishiga, tuproqlar unumdarligi va ekinlar hosidorligini pasayishiga olib keladi.

Viloyat sug‘oriladigan maydonlarining 58,3 % zovurlar bilan ta’minlangan. Ammo ushbu tarmoqlarning texnik xolatlari qoniqarli emas. Bugungi kunda xo‘jaliklararo tarmoqlarning 107 km ta’mirlashga va 678 km. tozalanishga muxtoj. Ichki xo‘jalik tarmoqlarining esa 7548 km. ta’mirlash va 2900 km. tozalash ishlariga mutojdir. Albatta bunday yirik xajmlardagi ishlarni bajarish uchun davlat tomonidan mablag‘lar ajratilishi maqsadga muvofiqdir, chunki fermer xo‘jaliklarning o‘zlarida bunday mablag‘lar mavjud emas.

O‘tkazilgan ko‘p yillik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, viloyatda mavjud sug‘oriladigan maydonlar tanazzulini kamaytirish hamda ulardan foydalanishni oqilona tashkil etishning asosiy yo‘nalishlaridan biri-bu sug‘orish suvidan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishdir. Bu esa o‘z navbatida sug‘orish va zovur tarmoqlarini tiklashga shuningdek suvdan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish zarurligini tug‘diradi. Jumladan, “O‘zuvloyiha” institutining ma’lumotlari bo‘yicha, viloyatda mavjud bo‘lgan sug‘orish tarmoqlarining umumiyligi uzunligi (xo‘jaliklararo va ichki xo‘jalik birgalikda) 22492 km.ni tashkil etadi. Ularning 48,4 % beton o‘zanlarda, qolganlari esa yerning o‘zida,

qaysiki bunda suvning bekordan bekorga isrof bo‘lishi kattaroqdir. Bundan tashqari, suv taqchilligi kuzatilgan yillari ichki sug‘orish tarmoqlarining bir qismi sug‘orish suvi oqmaganligi sababli kumilib ketgan yoki buzib tashlangan. Aynan shu sababli bugungi kunda viloyat buyicha 23904,0 ga sug‘oriladigan maydon sug‘orilmasdan qolmoqda.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda, shuningdek ushbu maydonlar tanazzulini to‘xtatishda almashlab ekishni joriy etish ham muxim axamiyatga egadir. Bugungi kunda almashlab ekishni joriy etish bo‘yicha hech qanday muammo mavjud emas. Fermer xo‘jaliklarning maydonlari kengaytirildi, ular iqtisodiy va tashkiliy jihatlaridan ma’lum imkoniyatlarga egadirlar, ilmiy muassasalar tomonidan almashlab ekishlarning turli tiplari va sxemalari ishlab chiqilgan va tavsiya qilinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sug‘orish suvidan samarali foydalanish samaradorligini oshirish, sug‘orish va kollektor-zovur tarmoqlarini ta’mirlash hamda tozalash ishlarini bajarish shuningdek, almashlab ekishni qonunchilik asosida joriy etilishini yo‘lga qo‘yish so‘zsiz viloyatning sug‘oriladigan maydonlarni degradatsiyalanishini kamaytiradi hamda ular samaradorligini oshiradi.

## FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алиқулов, F., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҶАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. Innovatsion Texnologiyalar, 1(4), 131–134. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127>
2. Aralov, M. M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA’LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 107–111. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630>
3. Aralov , M. M., & Qilichev , Z. M. (2023). TOPOGRAFIK CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI. Innovative Development in [https://t.me/goldenbrain\\_journal](https://t.me/goldenbrain_journal)

Educational Activities, 2(7), 674–679. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1100>

4. Ibragimov Utkir Nurmamat o‘g‘li, and Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. 2022. “Topografik kartalar yaratishning asosiy usullari”. arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali 1(4):31-33. <https://www.sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/4913>.

